**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,**
**FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**
**HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI KAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

# ERTA TASHXIS VA ABILITATSIYA

## MODULI BO‘YICHA

# O‘ Q U V – U S L U B I Y M A J M U A

**Buxoro – 2026**

Mazkur o‘quv uslubiy majmua Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi buyrug‘i bilan tasdiqlangan oliy ta’lim muassalarining maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, filologiya va psixologiya ta’lm yo‘nalishlarini bitirgan mutaxassislar **defektologiya(logopediya)** kasbiy qayta tayyorlash 5 oylik kursining Namunaviy o‘quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

O‘quv uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Kengashining 2025 yil 30-dekabrdagi 5– sonli yig’lish qarori bilan tasdiqlangan.

**Tuzuvchi:** - BVPMM Maktabgacha ta’limni muvofiqlashtirish bo’limi boshlig’i **D.B.Xamrayeva**

**Taqrizchi:** - BVPMM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi v.b dotsenti **N.X.Aslanova**

**O`quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2025 yil 30-dekabrdagi 5–sonli bayonnoma)**

**MUNDARIJA**

I. ISHCHI DASTUR……………………………………………………………..5

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI…………………………………………………………...11

III. NAZARIY MATERIALLAR……………………………………………13

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI……………………………..22

V. GLOSSARIY…………………………………………………………………39

VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI………………………………………………45

# ISHCHI DASTUR
## KIRISH

Ta’lim tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o‘quv-tarbiya jarayonida ta’limning innovatsion shakllari va usullarini qo‘llashga ko‘maklashadi.

Mamlakatimizda ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar malaka oshirishning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o‘zgartirishlarni kiritishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son, 2022-yil 29-yanvardagi “2022-2026 – yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2023-yil 3-iyuldagi “Ma’muriy islohatlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-200-son qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi “Professional ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 106-son, 2023-yil 7-dekabrdagi “Professional ta’limda kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 648-son qarorlari belgilangan ustuvor vazifalar jrosini ta’minlashni o’z ichiga olgan.

Ilk bolalik tibbiy va psixologik- pedagogik nuqtai nazardan bolaning rivojlanishidagi muhim bosqichlardandir. Bola hayotining dastlabki yillarida jamiyat bilan o‘zaro aloqadorligini, harakatini buzadigan salbiy omillar uning miyasini yetilish jarayonini kechiktiradi, tormozlaydi, analizatorlararo murakkab tizimning shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Bunday bolalarga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish uchun uning psixik va ijtimoiy rivojlanishidagi nuqsonlarni mumkin qadar erta aniqlash juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bularning barchasi bo‘lajak defektologlarga ilk yoshdagi

rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarni psixologik-pedagogik tashxis qilish va ular bilan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni olib borish metodlarini bilishlarini taqozo etadi. Shu sababli Maxsus pedagogika (Logopediya, surdopedagogika, oligofrenopedagogika) yo‘nalishi o‘quv rejasiga “Erta tashxis va abilitatsiya” fani kiritilgan.

Shuningdek, malaka oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tadbiq etish yo‘li bilan professional ta’lim tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, zamonaviy talablar asosida Professional ta’lim muassasalarining Chet (ingliz) tili fani o’qituvchilari o’qituvchilari fani o‘qituvchilari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini kredit-modullari orqali muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni **“Erta tashxis va abilitatsiya”** bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

## Kursning maqsadi va vazifalari

**Modulning maqsadi:** Erta tashxis va abilitatsiya modulini o‘qitishdan maqsad - tinglovchilarni ilk yoshdagi bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni iloji boricha ertaroq aniqlash va bunday bolalar, ularning oilalariga qanday yordam ko‘rsatishni aniqlashdan iborat.Shuningdek, jismoniy rivojlanish qonuniyatlari, ilk yoshdagi bolalarni psixologik, pedagogik, logopedik tashxis qilish, rivojlanmayqolgan funksiyalarni abilitatsiya qilishga tayyorlikni shakllantirishdir.Tinglovchilarning Erta tashxis va abilitatsiya moduli bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar bo’yicha qo‘yiladigan umumiy malaka va kompetensiyalarni shakllantirish.

**Modulning vazifalari:** Erta tashxis va abilitatsiyafanning vazifasi-ilk yoshdagi bolalarni erta tashxis qilish va abilitatsiyasining nazariy asoslarini yoritib

berish, ilk yoshdagi bolalarni psixologik, pedagogik va logopedik tashxis qilish, tekshirish metodlarini amalda qo‘llash yuzasidan tushuncha va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Tinglovchilarning Erta tashxis va abilitatsiya moduli yuzasidan berilgan ko’nikmalarini tatbiq etishga o’rgatishdan iborat.

**Modul bo’yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar. Tinglovchi:**

- Mashg’ulotlar jarayonida pedagogik va innovatsion texnologiyalarni qo’llash;
- Nutqida nuqsoni bo’lgan bolalarni o’qitish uchun dasturlar majmuini qo’llay olish;
- Nutqning patalogiyasi, bosh miya yarim sharlarining oily faoliyati, nerv tizimining kasalliklarini tahlil qilish;
- Dislaliya, Rinolaliya, Dizartriya, Alaliya, Afaziya, jarayonlarida bolalarni kuzatish va tahlil qilish;
- Zamonaviy talab va yondashuvlar asosida mashg’ulot ishlanmalarini tayyorlash, mashg’ulotlarni kuzatish va tahlil qilish;
- Logopedik mashg’ulotlarni rejalashtirish va tashkil etish;
- Me’yorida rivojlanayotgan bolalarning go’daklik, ilk yosh va makatabgacha yoshida psixik va jismoniy, nutqiy rivojlanish qonuniyatlari, eshitish, ko’rish idroki, harakat malakalari, nutq malakalarining rivojlanishini tahlil qilish;
- Mashg’ulotlarda lug’atni boyitish ishlarini olib boorish, nutq kamchiligiga ega bolalarda Grammatik jihatdan to’g’ri nutqni shakllantirish va rivojlantirish;
- Psixik va jismoniy rivojlanishida kamchiligi bo’lgan bolalarda namoyon bo’ladigan nuqson va kasalliklarning nazariy asoslarini yoritib berish malakalariga ega bo’lishi lozim.

## Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

Modul nazariy, amaliy, ko’chma va mustaqil mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi. Nazariy mashg‘ulotlarda Erta tashxis va abilitatsiya fanining maqsad va vazifalari hamda asosiy tamoyillari mazmuniga oid ma’lumotlar beriladi.

Amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interfaol ta’lim usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Ko’chma mashg’ulotlar o’quv rejasiga asosan ba’zaviy tashkilot va korxonalarda o’tkaziladi.

Mustaqil ta’lim modul asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida, ajratilgan soatlar hajmiga ko’ra o’quv-ijodiy ishlanmalar, o’quv loyihalari shaklida tashkil etiladi

## Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o‘quv rejadagi “Ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy-me’yoriy asoslari”, “Logopediya”, “logopsixologiya”, “Nutqida kamchiligi bo’lgan bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi”, “Inklyuziv ta’lim”, “Nutqning ontogenezida rivojlanishi”, “Logopedik o’yin”, “Logopedik mashg’ulotlarni rejalashtirish va tashkil etish”, “Logopedik ritmika”, “Nutq o’stirish maxsus metodikasi” modullari bilan uzviy bog‘langan holda bo‘lg‘usi tarbiyachilarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini shakllantirish va orttirishga xizmat qiladi.

## Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda modulning mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Modul **“Umumiy tayyorgarlik”**, “**Umumkasbiy tayyorgarlik”** o’quv modullaridan

keyin turadi. Bunda mavzu bo‘yicha tinglovchilarga yetkazilishi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar nazarda tutiladi.

**Modulning ta’limdagi o‘rni**

Tinglovchilarni erta tashxis qilish talablari asosida logopedik mashg‘ulotlarni o‘tishning zamonaviy texnologiya va metodlari bilan tanishtirish hamda ularni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ta’lim samaradorligini ta’minlashdan iborat.

## 2.6. “ERTA TASHXIS VA ABILIATSIYA” moduli bo‘yicha soatlar taqsimoti

| № | Mavzular | Tinglovchilarning jami o’quv yuklamasi | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Auditoriya o’quv yuklamasi | | | | |
| | | | | jumladan | | | |
| | | Hammasi | Jami | Nazariy | Amaliy mashg’ulot | Ko’chma mashg’ulot | Mustaqil ta’lim |
| 1 | Erta tashxis va abiliatsiya fanining maqsadi va vazifalari | 4 | 2 | 2 | | | 2 |
| 2 | Abiliatsiya va reabiliatsiyaning mohiyati va ahamiyati | 6 | 4 | 2 | 2 | | 2 |
| 3 | Maxsus pedagogning me’yorida hayot kechirish uchun zarur bo’lgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlardagi roli | 4 | 4 | 2 | 2 | | |
| 4 | Me’yorda rivojlangan bolalarning go’daklik, ilk yosh va maktabgacha yoshida psixik va jismoniy, nutqiy rivojlanish qonuniyatlari | 4 | 2 | | 2 | | 2 |
| 5 | Eshitish, ko’rish idroki | 2 | | | | | 2 |
| 6 | Harakat malakalari, nutq malakalarining rivojlanishi | 4 | 4 | | 2 | 2 | |
| 7 | Hislar, kognitiv rivojlanish | 2 | 2 | | 2 | | |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 8 | Erta psixologik-pedagogik hamkorlik qilishni tashkil etishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni tahlili | 2 | 2 | | | 2 | |
| | Jami | 28 | 20 | 6 | 10 | 4 | 8 |

## NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

**1-mavzu:** Erta tashxis va abiliatsiya fanining maqsadi va vazifalari **(2 soat)**

Erta tashxis va abiliatsiya fanining maqsadi va vazifalari, fanning boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi, ilk yoshdagi bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni iloji boricha ertaroq aniqlash va psixologik, pedagogik, logopedik o'rganish

**2-mavzu:** Abiliatsiya va reabiliatsiyaning mohiyati va ahamiyati **(2 soat)**

"Abilitatsiya", "Reabilitatsiya",bemorlik, "Korreksiya", "Anamnez" ikkilamchi nuqsonlar, tug'ma va ortirilgan nuqsonlar, bolalarni nutq nuqsonlarini erta aniqlash

**3-mavzu:** Maxsus pedagogning me'yorida hayot kechirish uchun zarur bo'lgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlardagi roli **(2 soat)**

"Defektolog", "Logoped", "Oligofrenolog", "Surdopedagog", "Tiflopegagog", Maxsus pedagog tushunchasi, korreksion rivojlantiruvchi ishlarning ahamiyati

## AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

**1-mashg'ulot: 2-mavzu: Abiliatsiya va reabiliatsiyaning mohiyati va ahamiyati (2 soat)**

"Abilitatsiya", "Reabilitatsiya",bemorlik, "Korreksiya", "Anamnez" ikkilamchi nuqsonlar, tug'ma va ortirilgan nuqsonlar, bolalarni nutq nuqsonlarini erta aniqlash

**2-mashg'ulot: 3-mavzu:** Maxsus pedagogning me'yorida hayot kechirish uchun zarur bo'lgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlardagi roli **(2 soat)**

"Defektolog", "Logoped", "Oligofrenolog", "Surdopedagog", "Tiflopegagog", Maxsus pedagog tushunchasi, korreksion rivojlantiruvchi ishlarning ahamiyati

**3-mashg'ulot: 4-mavzu: Me'yorda rivojlangan bolalarning go'daklik, ilk yosh va maktabgacha yoshida psixik va jismoniy, nutqiy rivojlanish qonuniyatlari (2 soat)**

Me’yorda rivojlangan bolalarning go’daklik, ilk yosh va maktabgacha yoshida psixik va jismoniy, nutqiy rivojlanish qonuniyatlari, ilk yoshda paydo bo’ladigan nutq kamchiliklarini farqlay olish

**4-mashg‘ulot: 6-mavzu: Harakat malakalari, nutq malakalarining rivojlanishi (2 soat)**

Harakat malakalarining to’g’ri shakllanganligi, bog’langan nutq mavjudligi, so’zlarni to’g’ri talaffuz qilish qoidalari, artikulyatsion apparatning harakatchanligi, Dislaliya, Alaliya, Dizartriya kabi diagnozlarni farqlay olish ko’nikmalari bilan amaliy ishlash

**5-mashg’ulot: 7-mavzu: Hislar, kognitiv rivojlanish (2 soat)**

**“**Kognitiv- (lotincha cognition idrok, tasavvur qilish, ishning tahlili ) – xarakter, tarbiya, kuzatish Kognitiv rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar: atrof-muhit, genlar, ijtimoiy nikoh holati

**Ko‘chma mashgulotlar mazmuni soatlari**

**6-mavzu: Harakat malakalari, nutq malakalarining rivojlanishi (2 soat)**

Ilk yosh va kichik maktab yoshidagi bolalarda harakat malakalarining to’g’ri shakllanganligi, bolaning nutqiy malakalarining aniq va to’gri shakllanganligi, bog’langan nutq mavjudligi, so’zlarni to’g’ri talaffuz qilish qoidalari, artikulyatsion apparatning harakatchanligi, harflarni so’zlarda o’z joyida qo’llay olishi, Dislaliya, Alaliya, Dizartriya kabi diagnozlarni farqlay olish ko’nikmalari bilan ishlay olish ko’nikmalarini ko’chma mashg’ulotlarda ko’rish

**8-mavzu: Erta psixologik-pedagogik hamkorlik qilishni tashkil etishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni tahlili (2 soat)**

Defektolog, logoped, psixolog, nervpatolog va ota-onalar o’rtasida erta psixologik-pedagogik hamkorlik qilishni tashkil etish, psixologik-pedagogik hamkorlikni tashkil etishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar, mashg’ulotlar

samaradorligi tushuntirish, bola bilan ishlashda psixologik yondashuvlar, hamkorlida olib boriladigan ishlarni tahlil qilish

**Mustaqil tayyorgarlik mazmuni**

**1-mavzu: Erta tashxis va abiliatsiya fanining maqsadi va vazifalari (2 soat)**

Erta tashxis va abiliatsiya fanining maqsadi va vazifalari, fanning boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi, ilk yoshdagi bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni iloji boricha ertaroq aniqlash va psixologik, pedagogik, logopedik o'rganish, bunday bolalar va ularning oila a'zolariga qanday yordam ko'rsatis usul va metodlarini ishlab chiqish, rivojlanmay qolgan funksiyalarni abilitatsiya qilishga tayyorgarlik.

**2-mavzu: Abiliatsiya va reabiliatsiyaning mohiyati va ahamiyati (2 soat)**

"Abilitatsiya-bola yoki katta kishida rivojlanishdan keskin ravishda orqada qolgan yoki mavjud bo'lmagan ruhiy va jismoniy funksiyalarni, ko'nikmalarni rivojlantirish hamda shakllantirish ", "Reabilitatsiya-bemorlik, baxtsiz hodisa yoki boshqa sabablar oqibatida yo'qotilgan ruhiy yoki jismoniy funksiyalar, ko'nikmalarni tiklash ", "Korreksiya", "Anamnez" ikkilamchi nuqsonlar, tug'ma va ortirilgan nuqsonlar, bolalarni nutq nuqsonlarini erta aniqlash haqida umumiy ma'lumot.

**4-mavzu: Me'yorda rivojlangan bolalarning go'daklik, ilk yosh va maktabgacha yoshida psixik va jismoniy, nutqiy rivojlanish qonuniyatlari (2 soat)**

Me'yorda rivojlangan bolalarning go'daklik, ilk yosh va maktabgacha yoshida psixik va jismoniy, nutqiy rivojlanish qonuniyatlari, ilk yoshda paydo bo'ladigan nutq kamchiliklarini farqlay olish, psixik va jismoniy rivojlanishning yosh xususiyatlariga mosligini anglash, ontropometriya ko'rsatgichlari va natijalarini bilish va taqqoslay olish.

**5-mavzu: Eshitish, ko'rish idroki (2 soat)**

Idrok-tirik organizmning ma'lumotlarni qabul qilib, qayta ishlash jarayoni; organizmga ob'ektiv reallikni aks ettirish va tashqi olamdagi yangidan yangivaziyatlarni baholab, shunga yarasha harakat qilish imkonini beradi. Idrok

miyaning ijodiy jarayoni ekanligi va eshitish va ko'rish orqali boalada ma'lumotlarni qabul qilish va tafakkurda aks ettirish jarayonlari

**O'qitish shakllari**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- bahs va munozaralar (topshiriqlar echimi bo'yicha dalillar va asosli ma'lumotlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

## O'QITISH VOSITALARI

Doska; Markerlar; Tarqatma materiallar; Videoproyektor; Vatman qog'ozi, Slaydlar

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. Ayupova M.Y Logopediya . Darslik. T.: O’zbekiston, 2023
2. Po’latxojayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari. O’quv qo’llanma. T.: TDPU -2013
3. Muzaffarova Xayitgul, Egamberdiyeva Shaxnoza. Erta tashxis va abilitatsiya. Uslubiy ko’rsatma. Jizzax-2023
4. Chicherina Ya., Isaeva D., Bondareva Ye. Erta tashxis va abilitatsiya. T.: RBIMM, 2010 yil.
5. Chicherina Ya., Isaeva D., Bondareva Ye. Erta tashxis va abilitatsiya. T.: RBIMM, 2010 yil.
6. L.R.Mo‘minova, N.Z.Abidova va boshqalar. Maxsus psixologiya. – T.:O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2013
7. Logopediya. (pod red. A.S.Volkovoy). M.: Vlados. 2003 g
8. Muminova L., Ayupova M. Logopediya. T.: O’qituvchi 1993 y.

9. Muminova L., Чичерина Я., Нуркелдиева Д. Диагностика психофизического развития детей первых лет жизни. Т.: РССАД, 2007г.

10. Muzaffarova X.N., Maktabgacha logopediya. Jizzax.: “Ruhshona servis”,

11. Hamidova M.U. Maxsus pedagogika. Toshkent. 2020, NIF MSH

## TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son qarori.
2. O‘zbekiston Resiublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi makgabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi PQ 4312-son qarori.
3. “O‘zbekisgon Respublikasiping ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” T.: 2018 yil.
4. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi.T.: 2018 yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi 391-son qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli qarori
7. Maktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 99-sonli buyrug‘i


## ELEKTRON TA’LIM RESURSLARI


1. www.edu.uz – O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi sayti
2. www.uzedu.uz – O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti
3. www.president.uz – O’zbekiston Respublikasi Prezidenti portali
4. www.gov.uz – O’zbekiston Respublikasi hukumati portali
5. www.lex.uz – O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlar milliy ba’zasi sayti
6. uz.wikipedia.Logopediya

# I. MODULNI O‘QITIShDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

## “T-jadval” GO

Grafik organayzer tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o‘zaro solishtirish, qiyoslash asosida o‘rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyanjihatini bir necha asosiy belgilarga ko‘ra batafsil yoritish maqsadida qo‘llaniladi. Ko‘p hollarda grafik organayzer mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslashmaqsadida qo‘llaniladi.

## “SWOT-tahlil” strategiyasi

Strategiya muammoning asosiy to‘rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. Ta’lim oluvchilar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o‘rganish orqali mohiyatini yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadi. Hal etishning eng samarali yo’llarini izlash. Grafik organayzer ta’lim oluvchilarda o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash (misollar bilan asoslash), bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

## "Xayolparast, realist va tanqidchi" usuli

Kreativ tafakkurni shakllantiruvchi o'yinlar va fikrlash darajasini oshiruvchi ajoyib bir ta'lim metodini o'rganamiz. O'z faningizga nisbatan o'quvchilarda kuchli qiziqish uyg'otish va mavzularni yaxshiroq tushunish uchun bugungi kun bilan bog'lagan holda bir muammoli savol toping.

Muayyan muammoni uch xil pozitsiyadan - xayolparast, realist va tanqidchi nazariyasidan kelib chiqqan holda hal qilish kerak bo'lgan qiziqarli o'yin tashkil eting. O'quvchilar dastlab xayolparast obraziga kiradilar va eng g'aroyib g'oyalarni taklif qiladilar. Ikkinchisida, pragmatist bo'lishadi, muammoni hal qilish uchun aniq birlashtirilgan harakatlar rejasini tuzishadi va bir necha bor o'ylab ko'rishadi. Uchinchisida, o'quvchilar bahslashib, tanqidiy fikrlaydi va taklif qilingan g'oyalardan xatolarni topadi.  Rollarni bir nechta odamlarga taqsimlash mumkin yoki ularning har birini bir o'quvchida sinab ko'rish ham mumkin. Misol uchun siz, Tarix

fanidan dars berasiz. "Nima uchun insoniyat jamiyati qadimda ham, o'rta asrlarda ham va hattoki bugun ham urushlardan qutula olmayapti?" Xo'sh, ushbu muammoli savolga kimda qanday fikr bor? Bu yerda aniq bir javob yo'q, yoki to'g'ri, noto'g'ri pozitsiyasi bo'lmaydi. Muhimi o'quvchi o'z fikrini bildirar ekan, vaziyatga real va tanqidiy ko'z bilan qaraydigan mustaqil fikrga ega bo'ladi.

Ushbu misolni har qanday fanda va har qanday mavzuda qo'llashingiz mumkin. Demak, bugunoq ushbu usulni sinab ko'ring va o'quvchilaringizda mustaqil fikrlash tarzini shakllantiring.

**"Oltita shlyapa" usuli**

Qadrli ustozlar bugun Kreativ tafakkurni shakllantiruvchi o'yinlardan biri bo'lgan "Oltita shlyapa" usulini ko'rib chiqamiz



Ushbu texnikani o'tkazishda har xil rangdagi 6 ta bosh kiyimni 1 o'quvchining o'zi birma -bir "kiyishi" kerak.

Oq rangda - mavzudagi barcha faktlarni sinchkovlik bilan va xolis tekshirish topshirig'i bajariladi, qora rangda - kamchiliklarni topish, sariq rangda - afzalliklarni tahlil qilish, yashil rangda - bir nechta g'oyalarni berish va qizil rangda - hissiy munosabat bildirish va ko'k rangda - umumlashtirish kerak bo'ladi. Avvalo, siz butun sinfga bugungi mavzuni 15 daqiqa to'liq tushuntirasiz. Mavzuning yodda saqlab qolish kerak bo'lgan qismlarini o'quvchilar daftariga yozdirishingiz kerak. Shundan so'ng, mavzuni mustahkamlash va o'quvchilar xotirasida butunlay qolib ketishi uchun ushbu metodni qo'llaysiz. Bu texnika tinglovchida bir vaqtning o'zida bitta mavzuga har xil tomondan yondoshuv taktikasini kuchaytiradi va mantiqiy fikrlashga o'rgatadi

# NAZARIY MATERIALLAR

**1-mavzu:** Erta tashxis va abiliatsiya fanining maqsadi va vazifalari **(2 soat)**

Tayanch so'z va iboralar: Erta tashxis va abiliatsiya fanining maqsadi va vazifalari, fanning boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi, ilk yoshdagi bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni iloji boricha ertaroq aniqlash va psixologik, pedagogik, logopedik o'rganish

Reja:

1. Erta tashxis va abilitatsiya fanining maqsad va vazifasi
2. Erta tashxis dasturi mutaxasislar jamoasi.Ular qanday yordam ko`rsatadi?
3. Bolaning nogironligini,uning rivojlanishidagi ikkilamchi nuqsonlarni yuzaga kelishini oldini olishga imkon yaratish uchun to'g'ri tanlangan ish qanday bo'lishi kerak?

**Erta tashxis va abilitatsiya fanni o'qitishdan maqsad** - talabalarni ilk yoshdagi bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni iloji boricha ertaroq aniqlash va bunday bolalar, ularning oilalariga qanday yordam ko'rsatishni aniqlashdan iborat.

Shuningdek, jismoniy rivojlanish qonuniyatlari, ilk yoshdagi bolalarni psixologik, pedagogik, logopedik tashxis qilish, rivojlanmay qolgan funksiyalarni abilitatsiya qilishga tayyorlikni shakllantirishdir.

**Erta tashxis va abilitatsiya fanning vazifasi** - ilk yoshdagi bolalarni erta tashxis qilish va abilitatsiyasining nazariy asoslarini yoritib berish, ilk yoshdagi bolalarni psixologik, pedagogik va logopedik tashxis qilish, tekshirish metodlarini amalda qo'llash yuzasidan tushuncha va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iborat.

Dasturda berilgan mavzular bo'yicha materiallarni o'zlashtirish jarayonida talabalar ilk yoshdagi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik tekshirish, korreksion-rivojlantiruvchi ishlar olib borish, ota-onalarga maslahatlar berish ishlari bilan tanishadilar. O'quv dasturiga talabalar amaliy faoliyatlarida bilishlari zarur bo'lgan mavzular kiritilgan.

Fanni o'zlashtirish natijasida talabalar quyidagi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo'ladi:

- ilk yoshdagi bolalarning psixomotor, nutqiy, jismoniy rivojlanish qonuniyatlarini, ilk yoshdagi bolalarning psixologik, pedagogik, logopedik o'rganish vazifalari, ilk yoshdagi bolalarni psixologik-logopedik o'rganish tamoyillari va metodlari, metodik

materiallar tanlash, ilk yoshdagi bolalarning psixologik, logopedik tekshirish, erta tashxis qilish va barvaqt aralashuv xususiyatlari, ilk yoshdagi bolalarda abilitatsiyalash yo‘llarini bilishi kerak;

- ilk yoshdagi bolalarni tekshirish uchun uslubiy materiallar tanlash, ilk yoshdagi bolalarni psixologik, pedagogik, logopedik tekshirish va maslahat berish, bolaning rivojlanishi bo‘yicha tavsifnoma tuzish, ilk yoshdagi bolalarni psixologik, logopedik tekshirish va bolalarni rivojlantirish usullarini aniqlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish kerak;

- ilk yoshdagi bolalarni rivojlantirish, nuqsonlarni oldini olish, bartaraf etishda turli metodlarni qo‘llay olish, ilk yoshdagi bolalarni tekshirish natijalarini tahlil qilish; ilk yoshdagi bolalarni o‘rganish, rivojlantirishga oid izlanishlar olib borish malakasiga ega bo‘lishi kerak;

Talabalar ma’ruza mashg‘ulotlarida egallagan bilimlarini amaliy mashg‘ulotlarda mustahkamlashlari fanning mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyatiga mos ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshiradi. Bugungi kunda ta’lim tizimida asosiy e'tibor ta’Iimning sifatini oshirishga qaratilgan.

Oliy ta’limda o‘qitishning sifatini oshirish ilg‘or o‘qitish usullaridan qanday foydalanishga bog‘liq bo‘lmoqda. Talabalar bilim saviyasini rivojlantirish va takomillashtirish mavzusi doimo oliy ta’lim tizimida dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelgan. Shu sababli talabalar puxta va chuqur bilim hamda ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassis bo‘lib yetishishlari uchun o‘qitish jarayonida axborot texnologiyalari va ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurati tug‘iladi. Axborotlar va bilimlar ko‘lami kengayayotgan hozirgi davrda talabalarga ta’lim berish jarayonini ulaming shaxsiga yo‘naltirish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bunda talabalaming layoqati, ehtiyojlari, o‘ziga xosliklari alohida hisobga olinib, ularni rivojlantiruvchi, yo‘naltiruvchi o‘quv-tarbiyajarayoni tashkil etiladi. Shu maqsadda darslarni tashkil etuvchi sifatida biz pedagoglardan talabalaming ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda, shuningdek, mustaqil ish, referat va kurs ishi, bitiruv malakaviy ish bajarish kabi faoliyatlarida ijodiy ishchan muhitda ularning o‘quvmehnati jarayonida faol ishtirok etish larini ta'minlashimiz talab etiladi.

2. Erta tashxis dasturi mutaxasislar jamoasi.Ular qanday yordam ko`rsatadi?

Ilk bolalik tibbiy va psixologik-pedagogik nuqtai nazardan bolaning

rivojlanishidagi muhim bosqichlardandir. Bola hayotining dastlabki yillarida jamiyat bilan o‘zaro aloqadorligini, harakatini buzadigan salbiy omillar uning miyasini yetilish jarayonini kechiktiradi, tormozlaydi, analizatorlararo murakkab tizimning shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Bunday bolalarga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish uchun uning psixik va ijtimoiy rivojlanishidagi nuqsonlarni mumkin qadar erta aniqlash juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Agarda bolaning kompensator imkoniyatlari, to‘g‘ri tanlangan, olib borilgan psixologik-pedagogik korreksiyalash, davolash ishlari o‘zaro uyg‘unlashsa boladagi birlamchi psixik-jismoniy nuqsonlar ancha yumshatiladi, ba’zan esa butunlay bartaraf etilishi mumkin. Bularning barchasi bolalar nogironligini, ularning rivojlanishidagi ikkilamchi nuqsonlarni yuzaga kelishini oldini olishga imkon yaratadi. Barvaqt yordam tashkil etishning asosiy maqsadlariga quyidagilar kiradi:

ilk yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalarni va ularning oilasini maxsus yordam bilan qamrab olish, bolalarning rivojlanishidagi buzilishlarni tashxis qilish va korreksiyalash, ikkilamchi nuqsonlarning yuzaga kelishini oldini olish, bolalarni me’yorida rivojlanayotgan tengdoshlari orasiga integratsiyalash.

me’yorida rivojlanayotgan tengdoshlari orasiga integratsiyalash. Bularning barchasi bo‘lajak defektologlarga ilk yoshdagi rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarni psixologik-pedagogik tashxis qilish va ular bilan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni olib borish metodlarini bilishlarini taqozo etadi. Shu sababli Maxsus pedagogika (Logopediya, surdopedagogika, oligofrenopedagogika) yo‘nalishi o‘quv rejasiga “Erta tashxis va abilitatsiya” fani kiritilgan. Mazkur uslubiy ko‘rsatmada talabalaming mustaqil bilim olish faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, ijodiy mustaqil fikrlash qobiliyatlarini hamda ularda

jamoa(guruhlar)da ishlash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi o‘quv suhbatlarini boshqarish texnologiyalari, moderatsiya (moderatorlik) tashkil etish, kommunikativ-suhbat texnologiyasi, talabalar o‘quv faoliyatini shakllantirish texnologiyasi, didaktik o‘yinlar texnologiyasi, ilyustrativ-multimedia asosidagi axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan va mashg‘ulot ishlanmalaridan namunalar keltirilgan. Rivojlanishda nuqsoni bo’lgan bolalami iloji boricha erta aniqlash, o’z vaqtida psixologik-pedagogik, korreksiyalash yordamini ko'rsatish, nogironlikning oldini olish,

bolalar va o'smirlaming ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tegishli tashkilotlar va defektologlaming vazifalari shundan iboratki, bolalar o'zlarining aqliy, bilim imkoniyatlariga va hissiy-idoraviy doiralarining xususiyatlariga mos sharoitda ta’lim olishlari, tarbiyalanishlariga imkoniyat yaratib berishlari lozim. «Psixik va jismoniy rivojlanishda nuqsonga ega bo‘lgan bolalar diagnostikasi» kursining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan ilk, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalami psixologik-pedagogik diagnostika qilish metodlarini amalda qo'llash bo4yicha bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish.

2. Aqli zaif bolalami maxsus muassalarga saralash ishlami olib borish bo'yicha amaliy malakalami shakllantirish

3.Bolaning nogironligini,uning rivojlanishidagi ikkilamchi nuqsonlarni yuzaga kelishini oldini olishga imkon yaratish uchun togri tanlangan ish qanday bolishi kerak?

Bola rivojlanishidagi nuqsonlar har xil bo;ladi, ularning ba’zilari batamom bartaraf etiladi, ba'zilari bir qadar tuzatiladi, korreksiyalanadi, bilinmaydigan holga keltiriladi, boshqalari esa kompensatsiyalanadi. Masalan, bola nutqida og‘ir nuqson bo‘Isa, ilk yoshda to‘gri tashkil etilgan logopedik chora-tadbirlar ta’sirida uni toiiq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson markaziy nerv sistemasidagi organik kamchiliklar natijasida paydo boMgan boIsa (masalan, aqli zaiflik shunday nuqson jumlasiga kiradi), uni to4liq bartaraf etib bo‘lmasa ham, biroq kamaytirish, ko‘zga ko4rinmaydigan, sezilmaydigan darajagacha tuzatish mumkin. Maxsus pedagogika amalivotida yana shunday toifadagi alohida yordamga muhtoj bolalar kuzaliladiki, 5 ulardagi nuqsonni tuzatib ham, korreksiyalab ham bo‘lmaydi, masalan, tug'ma ko‘rlik yoki karlikning ayrim turlari shular jumlasidandir. Bunda ko‘rish analizatorining vazifasini sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasini csa ko‘rish analizatoriga yuklash, ya’ni kompensatsiyalash, o‘mini bosish mumkin. Kokrish qobiliyati zaif bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan Brayl shriftidan foydalanadilar. Bunda harf olti nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyatida muammosi bo‘lgan boialar esa imoishora, daktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan fovdalanishlari mumkin. Korreksion pedagogika fanining rivojlanishi natijasida undan quyidagi tarmoqlari mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi:

- surdopedagogika (lotincha surdus •••• kar, gung so‘zidan olingan) eshitishida nuqsoni boigan bolalaming ta’Iim tarbiyasi bilan shug4ilianadigan fan;

- tiflopedagogika (yunoncha tiilos - ko‘r, so‘qir so‘zidan olingan)

- ko'zi ojiz bolalaming ta’lim-tarbiyasi bilan shuqullanadigan fan;

- oligofrenopedagogika (yunoncha oligos — kam, fren - aql). so‘zlaridan olingan, - • aqliy tomondan zaif bolalaming ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan fan;

- Logopediya (yunoncha logos - so‘z, padeo - tarbiya so‘zlaridan olingan) - oglir nuq nuqsonlarini o'rganish. oldini olish, bartaraf etish yo‘llari, usullarini o‘rganadigan fan. Respublikamizning barcha viloyatlarida zamon talablariga muvofiq alohida yordamga muhtoj bolalaming differensial va integratsiyalashgan, inklyuziv ta'limi barcha yo‘nalishlar bo‘yicha jadal sura'tlar bilan rivojlanmoqda. Butunjahon bolalariga xos bo‘lgan boialar huquqi haqidagi Konvensiya, O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida’*gi qonuni, “O’zbekistonda kadrlarni tayyorlash milliy dasturi” kabi va boshqa me’yoriy hujjatlarda ko‘rsatilishicha, barcha boialar, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor aloxida yordamga muxtoj boialar ham mehnat qilish, ta’Iim olish, hayotda o‘z o‘rnini topib ketish huquqlariga egadirlar. , 6 “Bola huquqlarining kafolatlari to‘qrisida'’gi Qonunga rioya etilishini ta'minlash uchun uzluksiz ta’lim tizimida faoliyat yurituvchi barcha mutaxassislar alohida yordamga muhtoj kishilar haqida lushunchaga ega bo‘lib, ularga ta’lim-tarbiya jarayonida qulay shartsharoitlar yaratib, kerak bo‘lsa, individuallashgan dasturlar asosida integratsiyalashgan inklyuziv sharoitda me'yorda rivojlangan tengdoshiari orasida hamma qatori ta'lim olish imkoniyatlarini yoki maxsus muassasalarda ta’lim olishiga yordam berishi zarur. Buning uchun har bir pedagog korreksion pedagogika fanining asoslarini egallagan bo‘lishi kerak.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Erta tashxis va abilitatsiya fanining asosiy maqsadi nima?
2. Ushbu fan doirasida qanday vazifalar amalga oshiriladi?
3. Erta tashxisning bolalar rivojlanishidagi ahamiyati qanday?
4. Abilitatsiya jarayonida qaysi asosiy prinsiplar amal qilinishi kerak?
5. Erta tashxis va abilitatsiya o'rtasidagi farqlar nimalardan iborat?

**2-mavzu:** Abiliatsiya va reabiliatsiyaning mohiyati va ahamiyati **(2 soat)**

Tayanch so'z va iboralar: “Abilitatsiya”, “Reabilitatsiya”,bemorlik, “Korreksiya”, “Anamnez” ikkilamchi nuqsonlar, tug'ma va ortirilgan nuqsonlar, bolalarni nutq nuqsonlarini erta aniqlash

Reja:

1. Erta tashxis va abilitatsiya fanni oʻqitishdan maqsad
2. Erta tashxis dasturi mutaxasislar jamoasi

Erta tashxis va abilitatsiya fanni oʻqitishdan maqsad - talabalarni ilk yoshdagi

3. Boladagi nuqsonlarni bartaraf etish uchun tanlangan usullar

bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni iloji boricha ertaroq aniqlash va bunday bolalar, ularning oilalariga qanday yordam koʻrsatishni aniqlashdan iborat. Shuningdek, jismoniy rivojlanish qonuniyatlari, ilk yoshdagi bolalarni psixologik, pedagogik, logopedik tashxis qilish, rivojlanmay qolgan funksiyalarni abilitatsiya qilishga tayyorlikni shakllantirishdir.

Erta tashxis va abilitatsiya fanning vazifasi - ilk yoshdagi bolalarni erta tashxis qilish va abilitatsiyasining nazariy asoslarini yoritib berish, ilk yoshdagi bolalarni psixologik, pedagogik va logopedik tashxis qilish, tekshirish metodlarini amalda qoʻllash yuzasidan tushuncha va koʻnikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Dasturda berilgan mavzular boʻyicha materiallarni oʻzlashtirish jarayonida talabalar ilk yoshdagi rivojlanishida nuqsoni boʻlgan bolalarni psixologik-pedagogik tekshirish, korreksion-rivojlantiruvchi ishlar olib borish, ota-onalarga maslahatlar berish ishlari bilan tanishadilar. Oʻquv dasturiga talabalar amaliy faoliyatlarida bilishlari zarur boʻlgan mavzular kiritilgan.

Fanni oʻzlashtirish natijasida talabalar quyidagi bilim, koʻnikma, malaka va kompetensiyalarga ega boʻladi:

- ilk yoshdagi bolalarning psixomotor, nutqiy, jismoniy rivojlanish qonuniyatlarini, ilk yoshdagi bolalarning psixologik, pedagogik, logopedik oʻrganish vazifalari, ilk yoshdagi bolalarni psixologik-logopedik oʻrganish

tamoyillari va metodlari, metodik materiallar tanlash, ilk yoshdagi bolalarning psixologik, logopedik tekshirish, erta tashxis qilish va barvaqt aralashuv xususiyatlari, ilk yoshdagi bolalarda abilitatsiyalash yo‘llarini bilishi kerak;

- ilk yoshdagi bolalarni tekshirish uchun uslubiy materiallar tanlash, ilk yoshdagi bolalarni psixologik, pedagogik, logopedik tekshirish va maslahat berish, bolaning rivojlanishi bo‘yicha tavsifnoma tuzish, ilk yoshdagi bolalarni psixologik, logopedik tekshirish va bolalarni rivojlantirish usullarini aniqlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish kerak;
- ilk yoshdagi bolalarni rivojlantirish, nuqsonlarni oldini olish, bartaraf etishda turli metodlarni qo‘llay olish, ilk yoshdagi bolalarni tekshirish natijalarini tahlil qilish; ilk yoshdagi bolalarni o‘rganish, rivojlantirishga oid izlanishlar olib borish malakasiga ega bo‘lishi kerak;

Talabalar ma’ruza mashg‘ulotlarida egallagan bilimlarini amaliy mashg‘ulotlarda mustahkamlashlari fanning mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyatiga mos ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshiradi. Bugungi kunda ta’lim tizimida asosiy e'tibor ta’Iimning sifatini oshirishga qaratilgan.

Oliy ta’limda o‘qitishning sifatini oshirish ilg‘or o‘qitish usullaridan qanday foydalanishga bog‘liq bo‘lmoqda. Talabalar bilim saviyasini rivojlantirish va takomillashtirish mavzusi doimo oliy ta’lim tizimida dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelgan. Shu sababli talabalar puxta va chuqur bilim hamda ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassis bo‘lib yetishishlari uchun o‘qitish jarayonida axborot texnologiyalari va ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurati tug‘iladi. Axborotlar va bilimlar ko‘lami kengayayotgan hozirgi davrda talabalarga ta’lim berish jarayonini ulaming shaxsiga yo‘naltirish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bunda talabalaming layoqati, ehtiyojlari, o‘ziga xosliklari alohida hisobga olinib, ularni rivojlantiruvchi, yo‘naltiruvchi o‘quv-tarbiyajarayoni tashkil etiladi. Shu maqsadda darslarni tashkil etuvchi sifatida biz pedagoglardan talabalaming ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda, shuningdek, mustaqil ish, referat va kurs ishi, bitiruv

malakaviy ish bajarish kabi faoliyatlarida ijodiy ishchan muhitda ularning o‘quv mehnati jarayonida faol ishtirok etishlarini ta'minlashimiz talab etiladi,

**2**.Erta tashxis dasturi mutaxasislar jamoasi.Ular qanday yordam ko`rsatadi?

Ilk bolalik tibbiy va psixologik-pedagogik nuqtai nazardan bolaning rivojlanishidagi muhim bosqichlardandir. Bola hayotining dastlabki yillarida jamiyat bilan o‘zaro aloqadorligini, harakatini buzadigan salbiy omillar uning miyasini yetilish jarayonini kechiktiradi, tormozlaydi, analizatorlararo murakkab tizimning shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Bunday bolalarga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish uchun uning psixik va ijtimoiy rivojlanishidagi nuqsonlarni mumkin qadar erta aniqlash juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Agarda bolaning kompensator imkoniyatlari, to‘g‘ri tanlangan, olib borilgan psixologik-pedagogik korreksiyalash, davolash ishlari o‘zaro uyg‘unlashsa boladagi birlamchi psixik-jismoniy nuqsonlar ancha yumshatiladi, ba’zan esa butunlay bartaraf etilishi mumkin. Bularning barchasi bolalar nogironligini, ularning rivojlanishidagi ikkilamchi nuqsonlarni yuzaga kelishini oldini olishga imkon yaratadi. Barvaqt yordam tashkil etishning asosiy maqsadlariga quyidagilar kiradi: ilk yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalarni va ularning oilasini maxsus yordam bilan qamrab olish, bolalarning rivojlanishidagi buzilishlarni tashxis qilish va korreksiyalash, ikkilamchi nuqsonlarning yuzaga kelishini oldini olish, bolalarni me’yorida rivojlanayotgan tengdoshlari orasiga integratsiyalash.

me’yorida rivojlanayotgan tengdoshlari orasiga integratsiyalash. Bularning barchasi bo‘lajak defektologlarga ilk yoshdagi rivojlanishida

muammolari bo‘lgan bolalarni psixologik-pedagogik tashxis qilish va ular bilan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni olib borish metodlarini bilishlarini taqozo etadi. Shu sababli Maxsus pedagogika (Logopediya, surdopedagogika, oligofrenopedagogika) yo‘nalishi o‘quv rejasiga “Erta tashxis va abilitatsiya” fani kiritilgan. Mazkur uslubiy ko‘rsatmada talabalaming mustaqil bilim olish faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, ijodiy mustaqil fikrlash qobiliyatlarini hamda ularda jamoa(guruhlar)da ishlash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi o‘quv suhbatlarini boshqarish texnologiyalari, moderatsiya (moderatorlik) tashkil etish, kommunikativ-suhbat texnologiyasi, talabalar o‘quv faoliyatini shakllantirish

texnologiyasi, didaktik o‘yinlar texnologiyasi, ilyustrativ-multimedia asosidagi axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan va mashg‘ulot ishlanmalaridan namunalar keltirilgan. Rivojlanishda nuqsoni bo’lgan bolalami iloji boricha erta aniqlash, o4z vaqtida psixologik-pedagogik, korreksiyalash yordamini ko'rsatish, nogironlikning oldini olish, bolalar va o'smirlaming ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tegishli tashkilotlar va defektologlaming vazifalari shundan iboratki, bolalar o'zlarining aqliy, bilim imkoniyatlariga va hissiy-idoraviy doiralarining xususiyatlariga mos sharoitda ta’lim olishlari, tarbiyalanishlariga imkoniyat yaratib berishlari lozim. «Psixik va jismoniy rivojlanishda nuqsonga ega bo‘lgan bolalar diagnostikasi» kursining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan ilk, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalami psixologik-pedagogik diagnostika qilish metodlarini amalda qo'llash bo4yicha bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish.

2. Aqli zaif bolalami maxsus muassalarga saralash ishlami olib borish bo'yicha amaliy malakalami shakllantirish

3.Bolaning nogironligini,uning rivojlanishidagi ikkilamchi nuqsonlarni yuzaga kelishini oldini olishga imkon yaratish uchun togri tanlangan ish qanday bolishi kerak?

Bola rivojlanishidagi nuqsonlar har xil bo;ladi, ularning ba’zilari batamom bartaraf etiladi, ba'zilari bir qadar tuzatiladi, korreksiyalanadi, bilinmaydigan holga keltiriladi, boshqalari esa kompensatsiyalanadi. Masalan, bola nutqida og‘ir nuqson bo‘Isa, ilk yoshda to‘gwri tashkil etilgan logopedik chora-tadbirlar ta’sirida uni toiiq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson markaziy nerv sistemasidagi organik kamchiliklar natijasida paydo boMgan boIsa (masalan, aqli zaiflik shunday nuqson jumlasiga kiradi), uni to4liq bartaraf etib bo‘lmasa ham, biroq kamaytirish, ko‘zga ko4rinmaydigan, sezilmaydigan darajagacha tuzatish mumkin. Maxsus pedagogika amalivotida yana shunday toifadagi alohida yordamga muhtoj bolalar kuzaliladiki, 5 ulardagi nuqsonni tuzatib ham, korreksiyalab ham bo‘lmaydi, masalan, tug'ma ko‘rlik yoki karlikning ayrim turlari shular jumlasidandir. Bunda ko‘rish analizatorining vazifasini sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasini csa

ko‘rish analizatoriga yuklash, ya’ni kompensatsiyalash, o‘mini bosish mumkin. Kokrish qobiliyati zaif boialar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan Brayl shriftidan foydalanadilar. Bunda harf olti nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyatida muammosi bo‘lgan boialar esa imoishora, daktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan fovdalanishlari mumkin. Korreksion pedagogika fanining rivojlanishi natijasida undan quyidagi tarmoqlari mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi:

- surdopedagogika (lotincha surdus •••• kar, gung so‘zidan olingan) eshitishida nuqsoni boigan bolalaming ta’Iim tarbiyasi bilan shug4ilianadigan fan;
- tillopedagogika (yunoncha tiilos - ko‘r, so‘qir so‘zidan olingan)
- ko'zi ojiz bolalaming ta’lim-tarbiyasi bilan shuqullanadigan fan;
- oligofrenopedagogika (yunoncha oligos — kam, fren - aql). so‘zlaridan olingan, -
• aqliy tomondan zaif bolalaming ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan fan;
- Jogopediya (yunoncha logos - so‘z, padeo - tarbiya so‘zlaridan olingan) - oglir nuq nuqsonlarini o'rganish. oldini olish, bartaraf etish yo‘llari, usullarini o‘rganadigan fan. Respublikamizning barcha viloyatlarida zamon talablariga muvofiq alohida yordamga muhtoj bolalaming differensial va integratsiyalashgan, inklyuziv ta'limi barcha yo‘nalishlar bo‘yicha jadal sura'tlar bilan rivojlanmoqda. Butunjahon bolalariga xos bo‘lgan boialar huquqi haqidagi Konvensiya, 0 ‘zbekiston Respublikasi “Ta’Iim to‘g‘risida’*gi qonuni, “CTzbekistonda kadrlarni tayyorlash milliy dasturi” kabi va boshqa me’yoriy hujjatlarda ko‘rsatilishicha, barcha boialar, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor aloxida yordamga muxtoj boialar ham mehnat qilish, ta’Iim olish, hayotda o‘z o‘rnini topib ketish huquqlariga egadirlar. , 6 “Bote huquqlarining kafolatlari to‘qrisida''gi Qonunga rioya etilishini ta'minlash uchun uzluksiz ta’lim tizimida faoliyat yurituvchi barcha mutaxassislar alohida yordamga muhtoj kishilar haqida lushunchaga ega bo‘lib, ularga ta’lim-tarbiya jarayonida qulay shartsharoitlar yaratib, kerak bo‘lsa, individuallashgan dasturlar asosida integratsiyalashgan inklyuziv sharoitda me'yorda rivojlangan tengdoshiari orasida hamma qatori ta'lim olish imkoniyatlarini yoki maxsus muassasalarda ta’lim olishiga yordam berishi zarur. Buning uchun har bir pedagog korreksion pedagogika fanining asoslarini egallagan bo‘lishi kerak

**3**.Bolaning nogironligini,uning rivojlanishidagi ikkilamchi nuqsonlarni yuzaga kelishini oldini olishga imkon yaratish uchun togri tanlangan ish qanday bolishi kerak?

Bola rivojlanishidagi nuqsonlar har xil bo;ladi, ularning ba’zilari batamom bartaraf etiladi, ba'zilari bir qadar tuzatiladi, korreksiyalanadi, bilinmaydigan holga keltiriladi, boshqalari esa kompensatsiyalanadi. Masalan, bola nutqida og‘ir nuqson bo‘Isa, ilk yoshda to‘gwri tashkil etilgan logopedik chora-tadbirlar ta’sirida uni toiiq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson markaziy nerv sistemasidagi organik kamchiliklar natijasida paydo boMgan boIsa (masalan, aqli zaiflik shunday nuqson jumlasiga kiradi), uni to4liq bartaraf etib bo‘lmasa ham, biroq kamaytirish, ko‘zga ko4rinmaydigan, sezilmaydigan darajagacha tuzatish mumkin. Maxsus pedagogika amalivotida yana shunday toifadagi alohida yordamga muhtoj bolalar kuzaliladiki, 5 ulardagi nuqsonni tuzatib ham, korreksiyalab ham bo‘lmaydi, masalan, tug'ma ko‘rlik yoki karlikning ayrim turlari shular jumlasidandir. Bunda ko‘rish analizatorining vazifasini sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasini csa ko‘rish analizatoriga yuklash, ya’ni kompensatsiyalash, o‘mini bosish mumkin. Kokrish qobiliyati zaif boialar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan Brayl shriftidan foydalanadilar. Bunda harf olti nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyatida muammosi bo‘lgan boialar esa imoishora, daktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan fovdalanishlari mumkin. Korreksion pedagogika fanining rivojlanishi natijasida undan quyidagi tarmoqlari mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi:

- surdopedagogika (lotincha surdus •••• kar, gung so‘zidan olingan) eshitishida nuqsoni boigan bolalaming ta’Iim tarbiyasi bilan shug4ilianadigan fan;
- tillopedagogika (yunoncha tiilos - ko‘r, so‘qir so‘zidan olingan)
- ko'zi ojiz bolalaming ta’lim-tarbiyasi bilan shuqullanadigan fan;
- oligofrenopedagogika (yunoncha oligos — kam, fren - aql). so‘zlaridan olingan, -
• aqliy tomondan zaif bolalaming ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan fan;

- Jogopediya (yunoncha logos - so‘z, padeo - tarbiya so‘zlaridan olingan) - oglir nuq nuqsonlarini o'rganish. oldini olish, bartaraf etish yo‘llari, usullarini o‘rganadigan fan. Respublikamizning barcha viloyatlarida zamon talablariga muvofiq alohida yordamga muhtoj bolalaming differensial va integratsiyalashgan, inklyuziv ta'limi barcha yo‘nalishlar bo‘yicha jadal sura'tlar bilan rivojlanmoqda. Butunjahon bolalariga xos bo‘lgan boialar huquqi haqidagi Konvensiya, 0 ‘zbekiston Respublikasi “Ta’Iim to‘g‘risida’*gi qonuni, “CTzbekistonda kadrlarni tayyorlash milliy dasturi” kabi va boshqa me’yoriy hujjatlarda ko‘rsatilishicha, barcha boialar, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor aloxida yordamga muxtoj boialar ham mehnat qilish, ta’Iim olish, hayotda o‘z o‘rnini topib ketish huquqlariga egadirlar. , 6 “Bote huquqlarining kafolatlari to‘qrisida''gi Qonunga rioya etilishini ta'minlash uchun uzluksiz ta’lim tizimida faoliyat yurituvchi barcha mutaxassislar alohida yordamga muhtoj kishilar haqida lushunchaga ega bo‘lib, ularga ta’lim-tarbiya jarayonida qulay shartsharoitlar yaratib, kerak bo‘lsa, individuallashgan dasturlar asosida integratsiyalashgan inklyuziv sharoitda me'yorda rivojlangan tengdoshiari orasida hamma qatori ta'lim olish imkoniyatlarini yoki maxsus muassasalarda ta’lim olishiga yordam berishi zarur. Buning uchun har bir pedagog korreksion pedagogika fanining asoslarini egallagan bo‘lishi kerak

**3-mavzu:** Maxsus pedagogning me'yorida hayot kechirish uchun zarur bo'lgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlardagi roli **(2 soat)**

"Defektolog", "Logoped", "Oligofrenolog", "Surdopedagog", "Tiflopegagog", Maxsus pedagog tushunchasi, korreksion rivojlantiruvchi ishlarning ahamiyati

Reja:

1.Maxsus pedagogning korreksion rivojlantirishdagi asosiy vazifalari

2. Korreksion rivojlantirish usullari va metodlari

3. Ota-onalar bilan hamkorlik va o'zaro aloqalar

**Kirish:** Maxsus pedagoglar bolalarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, ayniqsa, korreksion rivojlantirish jarayonida. Ularning vazifalari nafaqat bolalar bilan bevosita ishlashni, balki ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikni ham o'z ichiga oladi. Ushbu ma'ruzada maxsus pedagogning asosiy vazifalari, ularning ahamiyati va korreksion rivojlantirish jarayonida qanday yondashuvlar qo'llanilishi to'g'risida gaplashamiz.

**1. Individual yondashuv:** Maxsus pedagoglar har bir bolaning o'ziga xos ehtiyojlarini va qobiliyatlarini hisobga olishlari zarur. Bu, o'z navbatida, individual dasturlarni ishlab chiqishni talab etadi. Pedagoglar bolalarning rivojlanish nuqtalarini aniqlab, ularni rivojlantirish uchun maxsus strategiyalarni tanlashadi. Masalan, nutq nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun maxsus o'yinlar va mashqlarni kiritish mumkin.

**2. Korreksion metodlar va usullar:** Maxsus pedagoglar turli xil metodlardan foydalanadilar. Bunga o'yinlar, drama, san'at terapiyasi va boshqalar kiradi. Ushbu metodlar orqali bolalar o'z his-tuyg'ularini ifoda etish, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va o'zlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Korreksion usullar bolalarga o'z qobiliyatlarini aniqlashda va rivojlantirishda yordam beradi.

**3. Ota-onalar bilan hamkorlik:** Ota-onalar maxsus pedagoglar bilan yaqin aloqada bo'lishlari muhimdir. Ular bolalarning rivojlanishidagi muhim fikrlarni berishlari, shuningdek, maxsus pedagoglarning tavsiyalarini amalga oshirishda yordam berishlari zarur. Ota-onalar uchun treninglar va seminarlar o'tkazish, ularni korreksion jarayonlarga jalb etish samaradorlikni oshiradi.

**4. Psixologik va pedagogik yordam:** Maxsus pedagoglar bolalarga nafaqat pedagogik, balki psixologik yordam ham ko'rsatishlari zarur. Ular bolalarning hissiy holatini tushunib, ularga stress, xavotir yoki boshqa hissiyotlarni bartaraf etishda yordam berishi kerak. Bu, bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga hamda o'z-o'ziga ishonchlarini oshirishga yordam beradi.

**5. Tahlil va monitoring:** Maxsus pedagoglar bolalarning rivojlanish jarayonini muntazam ravishda tahlil qilishlari va monitoring qilishlari zarur. Bu, bolalarning qaysi sohalarda qiyinchiliklarga duch kelayotganini aniqlashga yordam beradi va dasturlarni yangilash imkoniyatini beradi. Pedagoglar shuningdek, o'z ishlarini baholash va takomillashtirish uchun turli xil testlar va metodlardan foydalanishlari mumkin.

Maxsus pedagoglarning korreksion rivojlantirishdagi roli muhim ahamiyatga ega. Ularning vazifalari individual yondashuv, korreksion metodlar, ota-onalar bilan hamkorlik, psixologik yordam va monitoringni o'z ichiga oladi. Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish bolalarning rivojlanishini yaxshilashga va ularni jamiyatga moslashtirishga yordam beradi.

2. Korreksion rivojlantirish usullari va metodlari maxsus ta'limda muhim o'rin egallaydi. Ular bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf etish va ijtimoiy ko'nikmalarini oshirish maqsadida qo'llaniladi. Ushbu ma'ruzada korreksion rivojlantirish usullari, metodlari va ularning ahamiyati haqida batafsil ma'lumot beriladi.

**1. Korreksion usullar:** Korreksion usullar bolaning o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi zarur. Ular quyidagi turlarga bo'linadi:

- **Psixologik usullar:**
  - Bolalarning hissiy va ruhiy holatini aniqlash va qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladi.
  - Masalan, psixologik o'yinlar va rolli o'yinlar bolalar uchun o'z his-tuyg'ularini ifoda etishda yordam beradi.
- **Pedagogik usullar:**
  - Bu usullar bolalar bilan ta'lim jarayonida ishlashda qo'llaniladi.
  - Ta'limda interaktiv metodlar, o'yinlar, va amaliy mashg'ulotlar ishlatiladi.
- **Fizik usullar:**
  - Jismoniy rivojlanish va motor ko'nikmalarini yaxshilash uchun qo'llaniladi.
  - Maktabgacha ta'limda qo'shiqlar, raqs va jismoniy faoliyatlar orqali bolalarni rivojlantirish mumkin.

**2. Korreksion metodlar:** Korreksion metodlar bolalarning individual ehtiyojlariga mos kelishi lozim. Ular orasida:

- **O'yin orqali o'qitish:**
  - O'yinlar bolalarga qulay va qiziqarli muhitda o'rganish imkoniyatini beradi.
  - Nutq nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun maxsus o'yinlar qo'llaniladi.
- **Drama va san'at terapiyasi:**
  - Drama va san'at terapiyasi bolalar uchun o'z his-tuyg'ularini ifoda etish, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.
  - Bu usullar bolalar bilan ijodiy faoliyatlarni qo'llashni talab etadi.
- **Maktabgacha va maktab ta'limida korreksion mashg'ulotlar:**
  - Maxsus pedagoglar ta'lim jarayonida bolaning rivojlanishiga mos ravishda mashg'ulotlar o'tkazishlari kerak.
  - Bu jarayonda nutq, motor ko'nikmalari va ijtimoiy ko'nikmalar rivojlantiriladi.

**3. Individual yondashuv:** Korreksion rivojlantirish jarayonida har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olish zarur. Maxsus

pedagoglar bolalarga individual yondashuvni tatbiq etish orqali ularning rivojlanishini samarali tarzda amalga oshirishlari mumkin.

- **Dasturlarni individualizatsiya qilish:**
  - Har bir bolaning ehtiyojlariga mos ravishda dasturlar ishlab chiqiladi.
  - Masalan, nutq rivojlanishida qiyinchiliklarga duch kelayotgan bolalar uchun maxsus nutq terapiyasi mashg'ulotlari tashkil etilishi mumkin.

**4. Ota-onalar bilan hamkorlik:** Korreksion rivojlantirish jarayonida ota-onalar bilan yaqindan hamkorlik qilish juda muhim. Ota-onalar maxsus pedagoglar bilan birgalikda bolalarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydilar. Ularning fikrlari va tajribalari bolalarning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

- **Treninglar va seminarlar:**
  - Ota-onalar uchun treninglar va seminarlar o'tkazish orqali ularni korreksion jarayonlarga jalb qilish mumkin.
  - Bu ular uchun o'z bolalari bilan ishlashda qo'llaniladigan metodlar va tavsiyalarni olish imkoniyatini beradi.

Korreksion rivojlantirish usullari va metodlari maxsus ta'lim jarayonida bolalarning individual ehtiyojlariga mos kelishi kerak. Psixologik, pedagogik va jismoniy usullar, shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlik orqali bolalarning rivojlanishiga erishish mumkin. Ushbu yondashuvlar bolalarning ijtimoiy, hissiy va ruhiy rivojlanishiga yordam beradi.

3. Ota-onalar bilan hamkorlik maxsus ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ota-onalar bolalarining rivojlanishi, ta'limi va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu ma'ruzada ota-onalar bilan hamkorlikning ahamiyati, usullari va samarasini ko'rib chiqamiz.

**1. Ota-onalar bilan hamkorlikning ahamiyati:** Ota-onalar va maxsus pedagoglar o'rtasidagi hamkorlik bolalar rivojlanishida juda muhimdir. Ota-onalar bilan yaqindan ishlashning asosiy foydalari:

- **Bolalar uchun yaxshiroq natijalar:** Ota-onalar bilan samarali hamkorlik bolalarning ijtimoiy, hissiy va akademik rivojlanishini yaxshilashga yordam beradi.
- **Muammolarni erta aniqlash:** Ota-onalar bolalarning uyda qanday rivojlanayotganini bilishadi, bu esa muammolarni erta aniqlash va hal qilish imkonini beradi.
- **Samarali aloqa:** Ota-onalar bilan doimiy aloqa maxsus pedagoglarga bolalarning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

**2. Ota-onalar bilan samarali hamkorlik usullari:** Ota-onalar bilan hamkorlikda qo'llaniladigan usullar:

- **Ma'lumot almashish:** Ota-onalar bilan muntazam ravishda ma'lumot almashish, masalan, rivojlanish jarayoni, o'qitish metodlari va bolalarning qobiliyatlari haqida ma'lumot berish.
- **Treninglar va seminarlar:** Ota-onalar uchun maxsus treninglar va seminarlar o'tkazish, bu ularga bolalar bilan ishlashda qo'llaniladigan metodlar va tavsiyalarni o'rgatish.
- **Ochiq eshiklar kuni:** Ota-onalarga ta'lim jarayoni haqida ko'proq ma'lumot berish va o'zaro aloqalarni mustahkamlash uchun ochiq eshiklar kunlarini o'tkazish.

**3. Ota-onalar bilan o'zaro aloqa o'rnatish:** Ota-onalar bilan o'zaro aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishning ba'zi muhim jihatlari:

- **Doimiy aloqa:** Telefon qo'ng'iroqlari, elektron pochta, xabarlar yoki uchrashuvlar orqali doimiy aloqa o'rnatish.
- **Shaxsiy yondashuv:** Har bir ota-onaga shaxsiy yondashuvni tatbiq etish, ularning fikrlarini tinglash va ularga ko'mak berish.
- **Muammolarni hal qilishda hamkorlik:** Agar muammolar yuzaga kelsa, ota-onalar bilan birgalikda yechimlar izlash va bu jarayonda ularga yordam berish.

**4. Ota-onalar va pedagoglar o'rtasida ishonch o'rnatish:** Ota-onalar bilan hamkorlikda ishonch o'rnatish zarur. Bunga erishish uchun:

- **Ochiq va samimiy aloqa:** Ota-onalar bilan ochiq va samimiy muloqot qilish, ularning fikrlarini hurmat qilish.
- **Ijobiy natijalarni baham ko'rish:** Ota-onalar bilan bolalarining yutuqlari va rivojlanishlari haqida ijobiy natijalarni baham ko'rish, bu ularga ishonch va motivatsiya beradi.

**5. Ota-onalarga qo'llaniladigan tavsiyalar:** Maxsus pedagoglar ota-onalarga quyidagi tavsiyalarni berishlari mumkin:

- **Uyda o'qish muhitini yaratish:** Ota-onalar bolalarining uyda ta'lim olishlari uchun qulay sharoitlarni yaratishlari muhimdir.
- **Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish:** Ota-onalar bolalariga ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda yordam berish uchun o'yinlar va boshqa faoliyatlardan foydalanishlari mumkin.
- **Pedagoglar bilan doimiy aloqa qilish:** Ota-onalar maxsus pedagoglar bilan doimiy aloqada bo'lishlari va ularning tavsiyalarini hisobga olishlari muhimdir.

Ota-onalar bilan hamkorlik maxsus ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli rivojlanish uchun zarurdir. Samarali aloqa, ma'lumot almashish va ishonch o'rnatish orqali maxsus pedagoglar bolalarning ijtimoiy, hissiy va akademik rivojlanishiga katta yordam berishi mumkin. Ota-onalarning faol ishtiroki bolalar uchun yanada yaxshi natijalarga olib keladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Maxsus pedagogning korreksion rivojlantirishdagi asosiy vazifasi qanday?
2. Korreksion rivojlantirish jarayonida maxsus pedagoglar qanday metodlardan foydalanadilar?
3. Ota-onalar bilan samarali hamkorlikning asosiy afzalliklari nimalardan iborat?

4. Ota-onalar va maxsus pedagoglar o'rtasida doimiy aloqa o'rnatish uchun qanday usullar qo'llanilishi mumkin?
5. Ota-onalarga bolalar bilan ishlashda yordam berish maqsadida qanday treninglar yoki seminarlar o'tkazilishi mumkin?

# AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

## 1-MAVZU. ABILITATSIYA VA REABILITATSIYANING MOHIYATI VA AHAMIYATI

**Maqsad:** Talabalarga Erta tashxis va abilitatsiya fani, bolalarga ilk yordam xizmatini tashkil etish masalalarini tahlil qilishni, mavzu yuzasidan tushuncha hosil qilish hamda, alohida yordamga muhtoj ilk yoshdagi bolalarga yordam tizimini to'g'ri tashkillashtirishni o'rgatishdan iborat.

| | |
|---|---|
| **Jihozlar**: maxsus muassasaning dastur, darsliklari, o'qituv vositalari | Alohida yordamga muhtoj ilk yoshdagi bolalarga yordam tizimini rivojlanishining dolzarb masalalari |
| **1.1. Amaliy mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi** | |
| Vaqti – 2 soat | Talabalar soni: 23 nafar |
| O'quv mashg'luotining shakli | Vizual amaliy mashg'ulot |
| Amaliy mashg'ulotning rejasi: | 1. Erta tashxis deganda nimani tushunasiz?<br>2. Abilitatsiya so'zi ma`nosini ayting.<br>3. Reabilitatsiya so'zi ma`nosini ayting.<br>4. Rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan bolalarga kimlarni kirgizamiz?<br>5. Korreksiya nima?<br>6. Anamnez nima? |
| **O'quv mashg'ulotning maqsadi:** Talabalarga Erta tashxis va abilitatsiya fani, bolalarga ilk yordam xizmatini tashkil etish masalalarini tahlil qilishni, mavzu yuzasidan tushuncha hosil qilish hamda, alohida yordamga muhtoj ilk yoshdagi bolalarga yordam tizimini to'g'ri tashkillashtirishni o'rgatishdan iborat. | |
| **Pedagogik vazifalari** | **O'quv faoliyatining natijalari** |
| - o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarni savollar orqali tekshirish;<br>- mavzu bo'yicha baxs-munozara tashkil etish;<br>- mavzuga oid maqolalar ustida ishlash. | - savollarga javob berish orqali mavzu yuzasidan bilimlarni namoyon etadilar;<br>- tashkil etilgan munozara orqali ayrim ma'lumotlarni o'zlashtiradi;<br>- matnlar ustida ishlash orqali mavzu haqidagi bilimlarni mustahkamlab boradilar. |
| **O'qitish uslubi va texnikasi** | Amaliy, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, klister |
| **O'qitish vositalari** | Proyektor, televizor, slaydlar |
| **O'qitish shakli** | Individual, frontal, juftlikda va guruhlarga ishlash |

| O‘qitish sharoitlari | Proyektor, komp’yuter, televizor bilan ta’minlangan Auditoriya | |
|---|---|---|
| **1.2. Amaliy mashg‘ulotining texnologik kartasi** | | |
| **Bosqichlar vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
| | **O‘qituvchi** | **Talaba** |
| **1-bosqich.Kirish(3 min.)** | 1.1. Mashg‘ulotni (blits-so‘rov) mashqi orqali tashkil etadi.<br>1.2.“Kichik guruhlarda ishlash” usulini amalga oshirish. | 1.1. Talabalarni ilk yoshdagi bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni iloji boricha ertaroq aniqlash va bunday bolalar, ularning oilalariga qanday yordam ko‘rsatishni aniqlash haqida ma’lumot berish.<br>1.2.Talabalarda ilk yordam xizmatini tashkil etishning dolzarb masalalari, rivojlanishida turli nuqsonlari bo‘lgan bolalarga barvaqt majmuaviy yordam ko‘rsatish haqidagi tushunchalarini kengaytirish h.k. |
| **2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (2 min.)** | 2.1. O‘quv faoliyatini baholash mezonlarini ma’lum qiladi | 2.1.Mashg‘ulot etaplaridagi faoliyatiga ko‘ra ball oladi, baholanadi |
| **3-bosqich. Asosiy qism (65 min)** | 3.1. Mavzuning birinchi rejasi bo‘yicha aniqlovchi savollar beradi<br>3.2. Mavzuning ikkinchi rejasi bo‘yicha munozara tashkil etadi<br>3.3. Mavzuning uchunchi rejasi bo‘yicha matnlar tahlili bilan ishlanadi | 3.1. Javob beradi, aniqlik kiritadilar, fikr yuritadilar biri-biriga savollar beradi<br>3.2. Munozara tashkil etish orqali fikrlarni bayonqiladilar, ma’lumotlarni birgalikda ko‘rib chiqadilar<br>3.3 Matnlar ustida ishlab uning leksik grammatik xususiyatlarini o‘rganishga erishadilar. |
| **4-bosqich. Yakuniy (10 min)** | 4.1. “Refleksiya” mashqi orqali mavzu mustahkamlanadi va xulosa yasaydi<br>4.2. O‘quv jarayonida ishtirok etganlarni reyting asosida baholaydi.<br>4.3. Kelgusi dars mavzusi e’lon qilinadi | 4.1. Mashg‘ulot davomida o‘rganilgan masalalar yodga olinadi.<br>4.2.Talabalar reying bahoga ega bo‘ladi<br>4.3.Yozib oladilar, tayyorlanib keladilar. |

**1-Mavzu: Ilk yordam xizmatini tashkil etishning dolzarb masalalari Maqsad:** Talabalarda Erta tashxis va abilitatsiya fani, bolalarga ilk yordam xizmatini tashkil etish masalalarini tahlil qilishni, mavzu yuzasidan tushunchahosil qilish hamda, alohida yordamga muhtoj ilk yoshdagi bolalarga yordam tizimini to‘g‘ri tashkillashtirishni o‘rgatishdan iborat.

**Jihozlar:** Doska, bo‘r, mavzuni yorituvchi plakatlar, A-4 formatli qog‘oz,rangli markerlar.

**I. Talabalarning bilimlarini tekshirish.**

**1- topshiriq:** Mavzu yuzasidan blits-so‘rov savollariga javob berish.

1. Erta tashxis deganda nimani tushunasiz?
2. Abilitatsiya so‘zi ma`nosini ayting.
3. Reabilitatsiya so‘zi ma`nosini ayting.
4. Rivojlanishida turli nuqsonlari bo‘lgan bolalarga kimlarni kirgizamiz?
5. Korreksiya nima?
6. Anamnez nima?

**Asosiy tushunchalar:**

Abilitatsiya, reabilitatsiya, pedagogika, nogironlikning ijtimoiy modeli, inson rivojlanishining ekologik nazariyasi funktsionirovaniya (hayotiy ko‘nikma va malakalarning) halqaro modeli, organizm funksiyalari, organizmning tuzilishi, faollik va ishtirok, rivojlanishning geteroxronligi, senzitiv davr, ikkilamchi nuqsonlar, egiluvchanlik va kompensatsiyalash imkoniyalari, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar.

**Abilitatsiya** – bola yoki katta kishida rivojlanishdan keskin ravishda orqada qolgan yoki mavjud bo‘lmagan ruhiy va jismoniy funktsiyalarni, ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda shakllantirish;

**Reabilitatsiya-** bemorlik, baxtsiz hodisa yoki boshqa sabablar oqibatida yo‘qotilgan ruhiy yoki jismoniy funktsiyalar, ko‘nikmalarni tiklash.

**2- topshiriq. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi**ni amalga oshirish bosqichlari.

***Kichik guruhlarga bo'lib dars o'tish:***

• o'quvchi talabalarni hamkorlikda ishlashga, bilish jarayoni follashtirishga, ularda kommunikabellik, kirishimlilik, boshqalarning fikrini eshitishni o'rgatadi;

• berilgan topshiriqni birgalikda bajarish jarayonida o'rtoqlari tomonidan bildirilgan fikrlarni muhokama qilishga moyillik paydo bo'ladi;

• savollarni aniq shakillantirishni, beradigan javoblarni asoslab berishni o'rganadilar;

• ta'lim oluvchining potensial imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi.

• Bilmaganlarini so'rab o'rganish imkoniyati yaratiladi. Ta'lim oluvchilar bilimini o'zaro hamkorlikda boyishini ta'minlaydi

• Tortinchoq talabalar o'z bilimlari, maxorotlarini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar;

• Qobiliyatli, iqtidorli o'quvchi – talabalar o'z qobiliyatlarini namoyon qilish, boshqalarga yordam berish, ularga o'rgatishlari va ulardan ham nimadir o'rganishlari mumkin.

***Kichik guruhlarga bo'lib dars o'tish samarasi bo'lishi uchun quyidagi qoidalarga amal qilish zarur;***

Dars materialini o'zlashtirish jarayonida talabalar jamoa bo'lib ishlashi kerak.

1. Har bir guruhda albatta a'lochilar bo'lishi, kichik guruh tarkibi aralash bo'lgani (qizlar, yigitlar) ma'qul.
2. Butun guruh va aloxida talabani taqdirlash tizimi ko'zda tutilgan bo'lishi lozim.

***Kichik guruh a'zolarining majburiyatlari:***

• Kichik guruhning xar bir a'zosi:

• o'rtoqlarining fikrini diqqat bilan eshitish;

• guruh ishida faol qatnashish va hamkorlikda ishlashdan bo'yin tortmasligi kerak;

• zarurat bo'lganda yordam so'rashi

• undan yordam so‘rashganda, boshqalarga o‘z yordamini berish;

• guruh ishining natijalarini baxolashda ishtirok etishi;

• o‘zining raini yaxshi tushunish va bajarish;

• topshiriqnibajarishda, aniq vazifalarini bilish kerak.

***“Kichik guruhlarda ishlash ” metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:***

• Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.

• Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari kerak.

• Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirashidalar

• Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.

• Kichik guruhlar taqdimot qiladilar

• Bajarilgan topshiriqlar muxokama va tahlil qilinadi.

• Kichik guruhlar baxolanadi.

**1-guruhga topshiriq:**

1. Abilitatsiya haqida tushuncha bering.
2. “Korreksiya” so‘ziga “Sinkveyn” tuzing.
3. “**Ilk yordam xizmatini tashkil etishning dolzarb masalalari**” mavzusiga 5 ta test savollari tuzing.

**2-guruhga topshiriq:**

1. Reabilitatsiya so‘zining mazmuni haqida tushuncha bering.
2. “Kompensatsiya” so‘ziga “Sinkveyn” tuzing.
3. “**Ilk yordam xizmatini tashkil etishning dolzarb masalalari**” mavzusiga 5 ta test savollari tuzing.

**3-guruhga topshiriq:**

1. Psixodiagnostika haqida tushuncha bering.
2. “Tafakkur” so‘ziga “Sinkveyn” tuzing.

3. “**Ilk yordam xizmatini tashkil etishning dolzarb masalalari**” mavzusiga 5 ta test savollari tuzing.

**4-guruhga topshiriq:**

1. Ilk aralashuv haqida tushuncha bering.
2. “Logoped” so‘ziga “Sinkveyn” tuzing.
3. “**Ilk yordam xizmatini tashkil etishning dolzarb masalalari**” mavzusiga 5 ta test savollari tuzing.

**Uyga vazifa 3- topshiriq: Klaster, organayzeri.**

**Grafikli organayzerlar (tashkil etuvchi) - fikriy jarayonlarni ko‘rgazmalitaqdim etish vositasi.** (klaster-tutam, bog‘lam) Axborot xaritasini tuzish yo‘li barcha tuzilmaning markazlashtirish aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish.

**Klasterni tuzish qoidasi**.

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing.
2. G‘oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
3. Xatni to‘xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e’tibor bermang.
4. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to‘xtatmang. Agarda aqlingizda g‘oyalar kelishi birdan to‘xtasa, u holda qachonki yangi g‘oyalar kelmaguncha qog‘ozga rasm chizib turing.

**Pedagog tushuntiradi.**

1. Klaster tuzish qoidasi bilan tanishtiradi.
2. Yozuv taxtasi yoki katta qog‘oz varag‘ini o‘rtasiga mavzu nomi yoki savol yozadi.

**Talaba bajaradi.**

1. Birikma bo‘yicha asosiy so‘z bilan uning yonida mavzu bilan bog‘liq so‘z va takliflar kichik doirachalar yo‘ldoshlarni yozib qo‘shadila

## 4-MAVZU. MAXSUS PEDAGOGNING ME'YORIDA HAYOT KECHIRISH UCHUN ZARUR BO'LGAN KORREKTSION-RIVOJLANTIRUVCHI ISHLARDAGI ROLI

**Maqsad:** Talabalarda maxsus pedagog tushunchasi, korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning ahamiyati, maxsus pedagogning ish faoliyatihaqidagi, normallashtirish tamoyilining mazmuni, moddalari va ijtimoiy-maishiy moslashuv haqidagi tushunchalarni kengaytirish.

**Jihozlar:** Al'bomlar va plakatlar, slaydlar, tarqatma materiallar

| | |
|---|---|
| **Mavzu:** | Maxsus pedagogning me'yorida hayot kechirish uchun zarur bo'lgan korrektsion-rivojlantiruvchi ishlardagi roli |
| **1.1. Amaliy mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi** | |
| Vaqti – 2 soat | Talabalar soni: 23 nafar |
| O'quv mashg'lotining Shakli | Vizual amaliy mashgulot |
| Amaliy mashg'ulotning rejasi: | 1. Maxsus pedagog olib boradigan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni sanab uting.<br>2. Maxsus pedagogning ish faoliyati nimalardan iborat.<br>3. Normallashtirish tamoyilining mazmuni, intellektual nuqsonga ega bo'lgan odamlarni normallashtirish jarayonining afzalliklari.<br>4. Psixik va jismoniy nuqsonga ega bo'lgan bolalar va kattalarda hayotiy malakalarni shakllantirish va ijtimoiy xizmatlar. |
| **O'quv mashg'ulotning maqsadi:** Talabalarda maxsus pedagog tushunchasi, korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning ahamiyati, maxsus pedagogning ish faoliyatihaqidagi, normallashtirish tamoyilining mazmuni, moddalari va ijtimoiy-maishiy moslashuv haqidagi tushunchalarni kengaytirish. | |
| **Pedagogik vazifalari** | **O'quv faoliyatining natijalari** |
| - o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarni savollar orqali tekshirish;<br>- mavzu bo'yicha baxs-munozara tashkil etish;<br>- mavzuga oid maqolalar ustida ishlash. | - savollarga javob berish orqali mavzu yuzasidan bilimlarni namoyon etadilar;<br>- tashkil etilgan munozara orqali ayrim ma'lumotlarni o'zlashtiradi;<br>- matnlar ustida ishlash orqalimavzu haqidagi bilimlarni mustahkamlab boradilar. |
| **O'qitish uslubi va texnikasi** | Amaliy, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, klaster |

<table>
<tr><td>O‘qitish vositalari</td><td colspan="2">Proyektor, slaydlar</td></tr>
<tr><td>O‘qitish shakli</td><td colspan="2">Individual, frontal, juftlikda va guruhlarga ishlash</td></tr>
<tr><td>O‘qitish sharoitlari</td><td colspan="2">Proyektor va kompyuter bilan ta’minlangan auditoriya</td></tr>
<tr><td colspan="3">1.2. Amaliy mashg‘ulotining texnologik kartasi</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Bosqichlar vaqti</td><td colspan="2">Faoliyat mazmuni</td></tr>
<tr><td>O‘qituvchi</td><td>Talaba</td></tr>
<tr><td>1-bosqich. Kirish (3 min.)</td><td>1.1. Mashg‘ulotni Tezkor savollar mashqi orqali tashkil etadi.<br>1.2. “Ma’naviyat daqiqasi” o‘tkaziladi</td><td>Maxsus pedagog olib boradigan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni sanab uting.<br>Maxsus pedagogning ish faoliyati haqida ma'lumot berish.<br>1.3. Psixik va jismoniy nuqsonga ega bo‘lgan bolalar va kattalarda hayotiy malakalarni shakllantirish va ijtimoiy xizmatlarni tahlil qilish.</td></tr>
<tr><td>2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (2 min.)</td><td>2.1. O‘quv faoliyatini baholash mezonlarini ma’lum qiladi</td><td>2.1.Mashg‘ulot etaplaridagi faoliyatiga ko‘ra ball oladi, baholanadi</td></tr>
<tr><td>3-bosqich. Asosiy qism (65 min)</td><td>3.1. Mavzuning birinchi rejasi bo‘yicha aniqlovchi savollar beradi<br>3.2. Mavzuning ikkinchi rejasi bo‘yicha munozara tashkil etadi<br>3.3. Mavzuning uchunchi rejasi bo‘yicha matnlar tahlili bilan ishlanadi</td><td>3.1. Javob beradi, aniqlik kiritadilar, fikr yuritadilar biri-biriga savollar beradi<br>3.2.Munozara tashkil etish orqali fikrlarni bayon qiladilar, ma’lumotlarni birgalikda ko‘rib chiqadilar<br>3.3 Matnlar ustida ishlab uning leksik grammatik xususiyatlarini o‘rganishga erishadilar.</td></tr>
<tr><td>4-bosqich. Yakuniy (10 min)</td><td>4.1. “Refleksiya” mashqi orqali mavzu mustahkamlanadi va xulosa yasaydi<br>4.2. O‘quv jarayonida ishtirok etganlarni reyting asosida baholaydi.<br>4.3. Kelgusi dars mavzusi e’lon qilinadi</td><td>4.1. Mashg‘ulot davomida o‘rganilgan masalalar yodga olinadi.<br>4.2. Talabalar reying bahoga ega bo‘ladi<br>4.3.Yozib oladilar, tayyorlanib keladilar.</td></tr>
</table>

## 4-mavzu. Maxsus pedagogning me'yorida hayot kechirish uchun zarurbo'lgan korrektsion-rivojlantiruvchi ishlardagi roli

**Maqsad:** Talabalarda maxsus pedagog tushunchasi, korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning ahamiyati, maxsus pedagogning ish faoliyatihaqidagi, normallashtirish tamoyilining mazmuni, moddalari va ijtimoiy-maishiy moslashuv haqidagi tushunchalarni kengaytirish.

**Jihozlar:** Al'bomlar va plakatlar, slaydlar, tarqatma materiallar

**Mashg'ulotni o'tkazish rejasi**

1. Maxsus pedagog olib boradigan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni sanab uting.
2. Maxsus pedagogning ish faoliyati nimalardan iborat.
3. Normallashtirish tamoyilining mazmuni, intellektual nuqsonga ega bo'lgan odamlarni normallashtirish jarayonining afzalliklari.
4. Psixik va jismoniy nuqsonga ega bo'lgan bolalar va kattalarda hayotiy malakalarni shakllantirish va ijtimoiy xizmatlar.

**1-topshiriq. Talabalar bilimini tekshirish bo'yicha tezkor savollar.**

**1.** Maxsus ehtiyojli bolalar: ular kimlar?

**2.** Tug'ilgandan to 1 yoshgacha bo'lgan bolalarni rivojlantirish qonuniyatlari haqida ma'lumot bering.

**3.** 1 yoshgacha bo'lgan bolalarning asosiy fiziologik va nerv-psixik xususiyatlari.

**4.** Reflekslar, rivojlanish proporsionalligi, bolaning harakat ko'nikmalari deganda nimani tushunasiz?

**5.** Eshitish, ko'rish idroki, harakat malakalari, nutq malakalarining rivojlanishi, hislar, kognitiv rivojlanishi haqida ma`lumot bering.

**6.** Bolalar faoliyatining hususiyatlarini kuzatish metodlari. Pedagog tekshirishning umumiy tahlillari.

## 2-topshiriq. "IKKI QISMLI KUNDALIKLAR" metodi

Ikki qismli kundaliklar talabalarga matn mazmunini o'z shaxsiy tajribasi bilan chambarchas bog'lash, o'zining tabiiy qiziquvchanligini qondirish imkonini beradi. Ayniqsa, talabalar qandaydir katta matnni uyda, o'quv auditoriyasidan tashqari o'qib chiqish topshirig'ini olishganida ikki qismli kundaliklar foydalidir.

Ikki qismli kundalik uchun talabalar yozilmagan qog'ozning o'rtasidan tik chiziq o'tkazib, uni ikkiga ajratishlari kerak. Qog'ozning chap tomoniga matnning qaysi qismi ularga eng ko'p taassurot qoldirganini qayd etishadi. Ehtimol, u qandaydir xotirani uyg'otar yoki hayotlarida yuz bergan voqealarni esga tushirar, yoki shunchaki taajjubga solar. Yoxud ularning qalbida keskin norozilik hissini uyg'otar. O'ng tomonida ular sharh berishlari kerak:

Ayni shu sitatani yozishga ularni nima narsa majbur etdi?Ularga qanday fikrlar uyg'otdi?

Shu munosabat bilan ularda qanday savol tug'ildi?

Qisqasi, matnni o'qirkan, talabalar vaqti-vaqti bilan to'xtashlari va o'zlarining qo'shaloq kundaliklarida shunday belgilar qo'yib borishlari kerak

**TEKST. Alohida yordamga muxtoj farzandi bor onalarning hikoyasidan:** «Alohida ehtiyojga ega farzandning ota-onasi bo'lish, oddiy ota-ona bo'lishdir. Menga xaligacha: «Eh bechora, senga qanchalik qiyin-a?», deb murojaat qilingan savollarni unchalik tushunmayman; bunday savollarni eshitganimda (bunaqa savollarni tez-tez eshitib turaman) men doimo o'zimni yo'qotib qo'yaman. Darhaqiqat, bu qanaqasi? O'z ishing bilan mashgul bo'lganingda, uylab o'tirmaysan, odatdagidek qilib ketaverasan, axir, qayoqqda ham borarding? Bu ham kamlik qilgandek mendan umidvorlik ishonch tuyg'ularini qanday qilib yo'qotmaganligim xaqida so'rashadi. Axir, men tirik umidlari xali so'nmagan insonman-ku! Ular uchun nuqsonli bola eng qo'rqinchli narsadek tuyuladi. Lekin men negadir o'zimni bechoradek his qilmayman va o'z qizim xaqida qayg'urishim boshqa onalarnikidan farq qiladi, deb uylamayman.

Menga bolalar uyida nuqsonli bolalar qancha ko‘pligini aytishadi, men esa, qanchasog‘lom bolalar  ham bor, deya javob beraman. Menimcha, xayotimizning eng og‘ir davri — aktseptatsiya (qabul qilish) davri bo‘lib, u nuqsonli farzand mummosiga yuzma-yuz kelganingda, uning nafaqat «rivojlanishdan orqada qolishi»ni, balki doim shunday bo‘lib qolishini tushunib yetguningcha davom etadi; natijada, haqiqatdan qochishdan to‘xtab, o‘zingda bori bilan yashay boshlaysan...».

**"Nima uchun" grafik organayzeri yordamida xulosalar chiqarish 3-topshiriq. "Nima uchun" grafik organayzerini to‘ldiring**




**4-topshiriq. Keys topshirig‘i**

**Aqli zaiflikning yengil darajasidagi 2-sinf o‘quvchisining bilish jarayonlariga qisqacha tavsif**

Akmal bu ta’lim muassasasiga 2 yildan buyon ta’lim-tarbiya oladi. TPPK ning xulosasiga ko‘ra yengil darajadigi aqli zaiflik (F70) tashhisi qo‘yilgan. Bu o‘quvchi tengdoshlari va kattalar bilan kommunikatsion aloqa qilishga qaratilgan muloqot jarayonariga kirishishni xohlamaydi. Lug‘at zahirasi juda kam, harakatlari chegaralangan, lekin ba’zan qo‘zg‘aluvchan bo‘lib qoladi. O‘zi va atrofdagilar haqida bir xil, ya’ni adekvat tasavvurga ega. U o‘zining, ota-onasi, aka-ukalari va

sinfdoshlarining ismlarini, uy manzilini biladi. O‘z-o‘ziga baho berishi juda yuqori. Ta’lim-tarbiya jarayonida juda passiv, ishtirok etishni istamaydi, oddiy savollarga ham javob bermaydi. Frontal va kichik guruhlarda ishlanadigan mashg‘ulotlarda o‘z xohishi bilan ishtirok etadi, topshiriqlarni bajarishga harakat qiladi, lekin tez charchaydi va boshqalarga xalaqit berishni boshlaydi. Dastur materialini qiyinchilik bilan bajaradi va xotirasida saqlab qoladi. Vaqt o‘tishi bilan muammoli vaziyatlarga duch kelsa topshiriqni bajarishni rad etadi. o‘qinli mashg‘ulotlarda ishtirok etish motivatsiyasi past. Guruhdagi mojaroli vaziyatlarda jismoniy kuch “tashabbuskori”. Rasm chizishga qobiliyati yaxshi. Ob’ektlarni shakl va rang tomonidan ajrata oladi, lekin rang turlari va ularning nomlarini ajratishga qiynaladi. Korrektsiyalash maqsadi – bolaning bilish jarayonlarini, o‘quv faoliyatiga motivatsiyasini rivojlantirish, tafakkur jarayonlarini rivojlantirish.

Keys topshirig‘i: Aqli zaiflikning yengil darajasidagi 2-sinf o‘quvchisining bilish jarayonlariga qisqacha tavsifi bilan tanishib chiqing. Uning ijobiy va salbiy kamchiliklarini belgilang. Bu o‘quvchining tafakkurini o‘rganishda yana qanday qo‘shimcha ma’lumotlar yig‘ish lozim.

Keysni baholash mezonlari: 5 balli shkala asosida baholanadi.

**Uyga vazifa. 5- topshiriq.** Bolalarning nutqida hamda rivojlanishida birlamchi va ikkilamchi buzilishlar kuzatilganilk yoshdagi bolalar bilan olib borilgan logopedik- rivojlantiruvchi ish mazmuni, shakllarini idrok xaritasini tuzing va tushuntiring.

# 4-MAVZU: ME'YORIDA RIVOJLANAYOTGAN BOLALARNING GO'DAKLIK, ILK YOSH VA MAKTABGACHA YOSHIDA PSIXIK VA JISMONIY, NUTQIY RIVOJLANISH QONUNIYATLARI

**Maqsad**: Talabalarda me'yorida rivojlanayotgan bolalarning go'daklik, ilk yosh va maktabgacha yoshida psixik va jismoniy, nutqiy rivojlanish qonuniyatlari tahlil qilishga oid bilimlarni rivojlantirish.

**Jihozlar**: Al'bomlar va plakatlar, slayd, topshiriqlar.

| | |
|---|---|
| **Mavzu:** | Me'yorida rivojlanayotgan bolalarning go'daklik, ilk yosh va maktabgacha yoshida psixik va jismoniy, nutqiy rivojlanish qonuniyatlari |
| **1.1. Amaliy mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi** | |
| Vaqti – 2 soat | Talabalar soni: 23 nafar |
| O'quv mashg'luotining shakli | Vizual amaliy mashgulot |
| Amaliy mashg'ulotning rejasi: | 1. Ilk yoshda ontogenezning rivojlanish bosqichlari.<br>2. 1 yoshgacha bo'lgan bolalarning asosiy fiziologik va nerv-psixik xususiyatlari.<br>3. Go'daklik va ilk yoshdagi bolalarni psixologik –pedagogik, nutqiy tekshirish.<br>4. Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni tashxis qilish bosqichlari.<br>5. Ilk yoshdagi (2 oylikdan 3 yoshgacha) bolalarni psixik, jismoniy va nutqiy rivojlanishini baxolash metodlari. |
| **O'quv mashg'ulotning maqsadi:** Talabalarda me'yorida rivojlanayotgan bolalarning go'daklik, ilk yosh va maktabgacha yoshida psixik va jismoniy, nutqiy rivojlanish qonuniyatlari tahlil qilishga oid bilimlarni rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalari** | **O'quv faoliyatining natijalari** |
| - o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarni savollar orqali tekshirish;<br>- mavzu bo'yicha baxs-munozara tashkil etish;<br>- mavzuga oid maqolalar ustida ishlash. | - savollarga javob berish orqali mavzu yuzasidan bilimlarni namoyon etadilar;<br><br>- tashkil etilgan munozara orqali ayrim ma'lumotlarni o'zlashtiradi;<br>- matnlar ustida ishlash orqalimavzu haqidagi bilimlarni mustahkamlab boradilar. |
| **O'qitish uslubi va texnikasi** | Amaliy, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, klaster |

| | | |
|---|---|---|
| **O‘qitish vositalari** | Proyektor, slaydlar | |
| **O‘qitish shakli** | Individual, frontal, juftlikda va guruhlarga ishlash | |
| **O‘qitish sharoitlari** | Proyektor va kompyuter bilan ta’minlangan Auditoriya | |
| **1.2. Amaliy mashg‘ulotining texnologik kartasi** | | |
| **Bosqichlar vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
| | **O‘qituvchi** | **Talaba** |
| **1-bosqich. Kirish (3 min.)** | 1.1. Mashg‘ulotni (Blits–so‘rov) mashqi orqali tashkil etadi.<br>1.2. “Ma’naviyat daqiqasi” o‘tkaziladi | 1.1. Adabiyotlardan foydalangan Ilk yoshda ontogenezning rivojlanish bosqichlarini haqida ma'lumot topib kelish<br>1.2. Ilk yoshda ontogenezning rivojlanish bosqichlarini o‘rganib kelish |
| **2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (2 min.)** | 2.1. O‘quv faoliyatini baholash mezonlarini ma’lum qiladi | 2.1. Mashg‘ulot etaplaridagi faoliyatiga ko‘ra ball oladi, baholanadi |
| **3-bosqich. Asosiy qism (65 min)** | 3.1. Mavzuning birinchi rejasi bo‘yicha aniqlovchi savollar beradi<br>3.2. Mavzuning ikkinchi rejasi bo‘yicha munozara tashkil etadi<br>3.3. Mavzuning uchunchi rejasi bo‘yicha matnlar tahlili bilan ishlanadi | 3.1. Javob beradi, aniqlik kiritadilar, fikr yuritadilar biri-biriga savollar beradi<br>3.2. Munozara tashkil etish orqali fikrlarnibayon qiladilar, ma’lumotlarni birgalikda ko‘rib chiqadilar<br>3.3 Matnlar ustida ishlab uning leksik grammatik xususiyatlarini o‘rganishga erishadilar. |
| **4-bosqich. Yakuniy (10 min)** | 4.1. “Refleksiya” mashqi orqali mavzu mustahkamlanadi va xulosa yasaydi<br>4.2. O‘quv jarayonida ishtirok etganlarni reyting asosida baholaydi.<br>4.3. Kelgusi dars mavzusi e’lon qilinadi | 4.1. Mashg‘ulot davomida o‘rganilgan masalalar yodga olinadi.<br>4.2. Talabalar reying bahoga ega bo‘ladi<br>4.3. Yozib oladilar, tayyorlanib keladilar. |

## 5-Mavzu: Me'yorida rivojlanayotgan bolalarning go'daklik, ilk yosh va maktabgacha yoshida psixik va jismoniy, nutqiy rivojlanish qonuniyatlari

**Maqsad:** Talabalarda me'yorida rivojlanayotgan bolalarning go'daklik, ilk yosh va maktabgacha yoshida psixik va jismoniy, nutqiy rivojlanish qonuniyatlari tahlil qilishga oid bilimlarni rivojlantirish.

1. **Talabalar bilimini tekshirish.**

**1-topshiriq "Blits-so'rov" usuli.**

Maqsadi: Talabalarda mantiqiy fikrlash, fan yuzasidan berilgan ma'lumotlar orasidan kerakligini ajrata olish qobiliyatini shakllantirish, o'zgalar fikrini hurmat qilish va ularga o'z fikrini o'tkaza olish, boshqalar bilan hamfikr bo'la olish kabi ko'nikmalarni tarixiy jarayon ketma–ketligini aniqlash orqali shakllantirish.

**O'tkazish texnologiyasi:** Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1. O'qituvchi talabalarga ushbu mashg'ulot bir necha bosqichda o'tkazilishi haqida tuchuncha beradi. Har bir bosqichdagi vazifani bajarishga aniq vaqt berilishi va undan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ogohlantiradi. Tarqatma materiallar tarqatib, talabalarga uni sinchiklab o'rganish zarurligi aytadi.

2. Talabalar dastlab tarqatma materialdagi "Yakka baho" bo'limiga o'zining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketma–ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi. Unga 5 minut ajratiladi.

3. Talabalarning yakka tartibdagi ishlari tugagach, o'qituvchi ulardan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tuzishini so'raydi. Ular hamfikrlikda tarqatma materialdagi "Guruh bahosi" bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqadilar. Unga 5 minut ajratiladi.

4. Barcha kichik guruhlarda ishlar tugagach, o'qituvchi harakatlar ketma-ketligi bo'yicha to'g'ri javobni beradi va talabalar "To'g'ri javob" bo'limiga raqamlarni yozib chiqadilar.

5. O'qituvchi "To'g'ri javob" bo'limida berilgan raqamlar bilan "Yakka baho" va "Guruh bahosi" bo'limidagi raqamlarni solishtrib, katta–kichikligini ayrib, farqini chiqarib, "Yakka xato" va "Guruh xatosi" bo'limlariga yozi

**("Blits-so'rov" uslubi )**

| Guruh Baxosi | Guruh xatosi | To'g'ri javob | Yakka xato | Yakka baho | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Psixologo-pedagogik tekshirish vazifalariga nimalar kiradi: |
| | | | | | Psixologik-pedagogik tekshirishning asosiy metodlari bayon qiling. |
| | | | | | Psixologik tekshirish (o'rganish) tamoyillarini aytib berin. |
| | | | | | Psixologik-pedagogik tekshirishni o'tkazishga qo'yiladigan talablarga nimalar kiradi? |

1-2 to'g'ri javob
"qoniqarli"1-3 to'g'ri javob
"yaxshi"
1-4 to'g'ri javob "a'lo"

**2-topshiriq. «TANQIDIY TAFAKKUR» metodi**

Talaba qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon qilish, o'zgalarning fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishiga asoslangan. Odatda bunday zarurat mubohasa xarakteriga ega masalalarni hal etayotganda yuzaga keladi. Bu narsa o'qituvchiga o'quvchilarning tinglash va muloqot qilish ko'nikmalarini, turli nuqtai nazardan tushunish malakasini rivojlantirish, baxsli masalalarni hal qilish, tahliliy mushoxada yuritish va fikrlash layoqatini oshirish, ularning o'z fikrini shakllantirish mahoratini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

«Tanqidiy tafakkur»ni o'tkazish uslubiyati.

1. Talabalarga mubohasa xarakteridagi muammo, topshiriq yoki chalkash masala qo‘yiladi va quyidagi savollar beriladi: 2 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarni rivojlantirish mashg‘ulotlarini qay tarzda tashkillashtirishi kerak? Qarindoshlik nikoxini to‘xtatish mumkinmi?. Bolalarda uchraydigan kamchiliklarning asosiy sabablari nimada deb o‘ylaysiz?

| | | |
|---|---|---|
| **Nima deb o‘ylaysiz?** | **Fikringiz qanaqa?** | **Sizningcha qanday?** |

Bu kabi savollar talaba o‘z nuqtai nazarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

2. Talabaga o‘z nuqtai nazari, fikrini ishlab chiqish uchun imkoniyat va fursat beriladi.

3. Talaba o‘z fikrini asoslaydi, bunda uning nuqtai nazarini aniqlab olish uchun quyidagi savollarni berish mumkin:

| | |
|---|---|
| **Nega bunday deb o‘ylaysiz?** | **Nimalar asosida bunday xulosaga keldingiz?** |

4. O‘qituvchi ko‘rib chiqilayotgan masala yuzasidan boshqa fikrda bo‘lgan ta’lim oluvchilarga so‘zlash imkoniyatini beradi, bunda quyidagi savollarni berish mumkin:

| | |
|---|---|
| **Kimda boshqa fikr bor, nega?** | **Kim aytilgan fikrni ma’qullamaydi, nega?** |

5. O‘qituvchi talabalar bilan birgalikda xar xil nuqtai nazarlarni muhokama qilish vositasida barcha fikrlarni tahlil qilib chiqadi, bunda quyidagi savollarni berish mumkin:

| | |
|---|---|
| **Nega boshqa o‘quvchining nuqtai nazarini ma’qullamaysiz?** | **O‘z nuqtai nazaringizni tasdiqlovchi asoslar keltira olasizmi?** |

6. Muammoni topshiriq, chalkash masala bo‘yicha qabul qilingan qarorga talabalar tomonidan o‘z nuqtai nazarlarini qabul qilishi yoki qayta baholanishibilan erishiladi, bunda quyidagi savollarni berish mumkin:

| | |
|---|---|
| **Sizningcha, kimning nuqtai nazari eng maqbul?** | **Yuzaga kelgan vaziyatdan qaysi yo‘l bilan chiqish ma’qulroq?** |

«Tanqidiy tafakkur» uslubini o‘tkazish qoidalari:

1. Aniq belgilab qo‘yilgan vaqtda o‘quvchilar ko‘rsatilgan topshiriq yoki chalkash masaladagi rollarni ijro etishlari lozim.

2. Rol o‘ynalishi natijalariga ko‘ra o‘yin muhokamasi va baholanishi amalga oshiriladi. Ishtirokchilar va kuzatuvchilar o‘yin paytida sodir bo‘lganlarni tahlil qilib chiqish va muhokama qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

Bunda quyidagi savollarni berish mumkin:

| Rolli o‘yin o‘tkazilayotganda qanday natijalarga erishilishi? | Qaysi muammo tilga olindi, u o‘z echimini topdimi? | Bordi-yu o‘yin shartlari o‘zgartirilsa, natijalar qanday bo‘lardi? |
|---|---|---|

## 3-topshiriq. SWOT – tahlili

**SWOT** – tahlili jadvalidan foydalanish jarayonida talaba mavjud holatni tahlil qiladi va baholaydi. Tahlil va sintez qilish yo‘li bilan biror mantiqiy qaror qabul qilishga o‘rganadi. **Mavzu: Ilk yoshdagi bolalar ota-onalari bilan olib boriladigan korreksion pedagogik ishlarning o‘ziga xosligi**

- S – kuchli tomoni
- W - kuchsiz tomoni
- O - imkoniyotlari
- T – xavf-xatar

| | | |
|---|---|---|
| S | **Kuchli tomoni** | |
| W | **Ojiz tomoni** | |
| O | **Imkoniyatlari** | |
| T | **Xavflar** | |

**4-topshiriq. Zig-zag metodi**

Zig — zag texnologiyasi taxsil oluvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodda saklab qolish, so‘zlab bera olish, fikrini erkin xolda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha ishtirokchilarni baxolay olishga qaratilgan. Ushbu texnologiyada tarqatma materiallar ishtirokchilar tomonidan yakka va guruh xolatida o‘zlashtiriladi hamda o‘zaro suhbat, baxs — munozara, turli savollar orqali ularning matnni qay darajada o‘zlashtirilganligi nazorat qilinadi va kichik guruhlarning faolliklari va o‘zlashtirish darajalari tezkor baxolanadi.

«Zig—zag» texnologiyasi bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

 1-bosqich. 4 — 5 kishidan iborat kichik guruhlarni tashkil etish va o‘rganiladigan mavzu matnini guruhlar soniga mos xolda alohida bo‘laklarga ajratgan xolda guruhlarga tarqatish.

(Xar bir guruhga aloxida topshiriq beriladi, tarqatma matnlar ham xar bir ishtirokchiga berilishi lozim)

 2-bosqich. Guruh a’zolariga berilgan matnlar ishtirokchilar tomonidan yakka tartibda, so‘ng guruh bilan mustaqil o‘rganiladi.

 3-bosqich. Raqamlar yozilgan qog‘ozchalar (raqamlar kichik guruh ishtirokchilarining soniga mos bo‘lishi kerak) kichik guruh ishtirokchilari tomonidan tortiladi.

- 4-bosqich. Xar bir kichik guruhlardagi bir xil raqamli ishtirokchilar alohida stol atrofida birlashadilar. Bu bosqichda xar bir ishtirokchi ham o‘qituvchi, ham o‘quvchi rolida ishtirok etadilar.
- O‘qituvchi sifatida o‘rganib kelgan materialini sheriklariga
- tushuntiradi.O‘quvchi sifatida sheriklari tushuntirgan matnlarni o‘rganadi.
- Guruh ishtirokchilari savollar asosida bir — birlarini tekshirib ko‘radilar.

Baholash esa guruhlarning bir — birlariga savol berishi yoki test savollari yoki shu ishlarning taqdimoti ko‘rinishida olib borilishi mumkin.

**Metod uchun savollar:**

1. Ilk yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik tashxis qilish ishlari qanday tashkillashtiriladi?
2. Maxsus muassasalarni komplektlash bo‘yicha tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyalar ishining mazmuni va uni tashkil etilishi haqida ma’lumot bering.
3. Maxsus maktabgacha ta`lim muassasalariga qabul qilinadigan bolalar.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishidagi nuqsonlarni psixologik-pedagogik diagnostikalash metodlari.
5. Tibbiy—psixologik-pedagogik komissiya ishining tashkil etilishi.
6. Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning tuzilishi, ish vaqti, jihozlari.
7. Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaga taqdim etiladigan hujjatlar.

**Uyga vazifa 5-topshiriq**

**Mavzu bo‘yicha quyidagi keys topshiriqlarini bajarish tavsiya etiladi:**

**1-keys.** Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyalanuvchisi Diyoraning onasi muassasa rahbariyatiga murojaat bilan keldi. Uning aytishicha, farzandi “r”, “l”, “g” tovushlarini talaffuz eta olmaydi. Tarbiyachi Diyoraning onasiga logoped mutaxassis bilan shug‘ullanish zarurligini tushuntirdi. Qizaloq bir-ikki mashg‘ulotdan so‘ng mutaxassis bilan shug‘ullanishni xohlamay, injiqlik qila

boshladi. Onasi esa farzandidagi nuqson yillar o‘tishi bilan tuzalib ketishini, uni qiynashni istamasligini aytib, mashg‘ulotlarni bekor qilinishini so‘radi.

Savol: sizningcha, bu vaziyatda ona haqmi? Amaliyotda shunday holatlarga duch kelganda mutaxassis qanday yo‘l tutishi kerak? Fikrlaringizni ishonchli dalillar bilan asoslang.

**Keysni tahlil qilish va yechish bo‘yicha yo‘riqnoma. Ish bosqichlari.**

**Maslaxat va tavsiyanomalar**

1. Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishish Keys yechishga doir ko‘rsatmalar bilan tanishing. Ko‘rsatmalarning har bir bosqichini diqqat bilan o‘qing va uslubiy ko‘rsatmalarni o‘rganib chiqish vaqtida muammoli vaziyatlarni yechishga shoshilmang.

2. Muammoli vaziyatlar bilan tanishish

Taqdim etilgan muammoli vaziyatlar bilan tanishing. Muammoli vaziyatlar mazmuniga e’tiboringizni qarating. Berilgan muammoli vaziyat qanday vaziyatni hal etishga qaratilgan.

3.Muammoli vaziyatni tahlil

Asosiy muammolarga diqqatingizni qarating. Asosiy muammo: bolaning nutqida tovushlarni hosil qilish. Ota-onalarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish va murosaga kelish. Logopedning kasbiy mahorati muammoli vaziyatlarni tahlil qiling va yechimini toping. Berilgan vaziyatlar yuzasidan yechimini topganingizdan so‘ng onaning logopedga bo‘lgan e’tiroziga nisbatan qanday yo‘l tutish yuzasidan taklifingizni bayon eting.

4. Muammoli vaziyatlarni yechish usullari va vositalari

Muammoli vaziyatlarni xal etishda, sababni xolislik va adolatlilik bilan hal qiling. Vaziyatlar yuzasidan o‘z takliflaringizni asoslash uchun dalillar o‘ylab toping.

## 4-mashg‘ulot: 6-mavzu: Harakat malakalari, nutq malakalarining rivojlanishi (2 soat)

**Maqsad:**

Talabalarga harakat malakalari va nutq malakalarining o'zaro bog'liqligini tushuntirish va ularni rivojlantirish uchun amaliy ko'nikmalarni berish.

**Vaqt:** 90 daqiqa

**Mashg'ulot Rejasi**

**1. Kirish (15 daqiqa)**

- **Ma'ruzacha**: Harakat malakalari va nutq malakalarining o'zaro aloqasi haqida qisqa ma'ruza.
- **Savol-javob**: Talabalardan harakat va nutq malakalari haqida savollar so'rash va javoblar olish.

**2. Amaliy faoliyat 1: Harakat va Nutqni Bog'lash (25 daqiqa)**

- **Vazifa**: Guruhlarga bo'ling (3-4 nafar).
- **Topshiriq**: Harakatlar va nutqni birlashtirish uchun oddiy o'yinlar tayyorlash. Misol:
  - "Kuchli ovoz" o'yini: Talabalar o'zlarining ovozlari bilan harakatlarni birlashtiradi (masalan, "sakrash" so'zi aytilganda sakrash).
  - "Nutq va harakat": Nutq jarayonida muayyan harakatlarni bajarish (masalan, "qoqish" so'zi aytilganda qo'llarni qoqish).

**3. Amaliy faoliyat 2: Harakatlar orqali nutqni rivojlantirish (25 daqiqa)**

- **Vazifa**: Harakatlar yordamida nutq malakalarini rivojlantirish.
- **Topshiriq**: Harakatlarni (masalan, raqs, sport o'yinlari) nutq so'zlariga moslashtirish.
  - "Raqs orqali nutq": Harakatlar bajarilganda ma'lum so'zlarni aytish (masalan, harakatlar raqsda ifodalangan so'zlar).

**4. Tahlil va muhokama (15 daqiqa)**

- **Muhojira**: O'tkazilgan faoliyatlarni muhokama qiling. Talabalarning o'zaro fikrlarini eshitish.
- **Savollar**: Harakat malakalari va nutq malakalarini rivojlantirishda qaysi o'yinlar va faoliyatlar samarali bo'lganini aniqlash.

**5. Xulosa (10 daqiqa)**

- **Xulosa**: Harakat malakalari va nutq malakalari o'rtasidagi aloqani qisqacha sharhlash.
- **Uyga vazifa**: Talabalarga o'zlarining amaliyotlari uchun qo'shimcha mashqlar tayyorlash.

---

**Materiallar:**

- Ovozli o'yinlar uchun muvofiq asboblar (masalan, musiqiy asboblar).
- Harakatlar uchun maydon yoki ochiq joy.
- Qog'oz va ruchkalar.

**Qo'shimcha ma'lumot:**

Harakat va nutq malakalarining rivojlanishi o'zaro bog'liqdir. Ushbu mashg'ulotda talabalar o'z bilimlarini amalda qo'llab, kelajakda o'z bemorlariga qanday yordam berishlarini o'rganadilar.

Harakat malakalarining to’g’ri shakllanganligi, bog’langan nutq mavjudligi, so’zlarni to’g’ri talaffuz qilish qoidalari, artikulyatsion apparatning harakatchanligi, Dislaliya, Alaliya, Dizartriya kabi diagnozlarni farqlay olish ko’nikmalari bilan amaliy ishlash

Harakat malakalari va nutq malakalarining rivojlanishi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan sohalardir. Ularning o'zaro aloqasi va rivojlanishi insonning umumiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Quyida harakat va nutq malakalarining rivojlanishi haqida kengroq

ma'lumot keltiraman.

**Harakat Malakalari**

1. **Harakat Malakalari Nima?**
    - Harakat malakalari jismoniy harakatlar, koordinatsiya, muvofiqlik va motorik ko'nikmalardan iboratdir. Bu malakalar bolaning o'z tanasi bilan bog'lanishi va muhitga moslashishi uchun zarur.
2. **Turli Turlari:**
    - **Oson harakatlar**: Boshqarish va muvofiqlik talab qiladigan oddiy harakatlar (masalan, yurish, sakrash).
    - **Murakkab harakatlar**: Raqs, sport o'yinlari kabi ko'proq koordinatsiya va rejalashtirishni talab qiluvchi harakatlar.
3. **Rivojlanish Etaplari:**
    - **Bola yoshi**: Harakat malakalari 0-3 yoshgacha tez rivojlanadi. Bu davrda bolaning motorik ko'nikmalari, mushak kuchi va muvofiqlik rivojlanadi.
    - **O'rta yosh**: 3-6 yoshda bola o'z harakatlarini yanada rivojlantiradi, masalan, sport o'yinlariga qiziqishi ortadi.

**Nutq Malakalari**

1. **Nutq Malakalari Nima?**
    - Nutq malakalari so'zlash, eshitish, tushunish va muloqot qilish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Nutq jarayoni o'z navbatida harakatlar bilan bog'liqdir, chunki nutq muskul faoliyati, nafas olish va vokalizatsiya orqali sodir bo'ladi.
2. **Turli Turlari:**
    - **Ovoz chiqarish**: Ovoz balandligi, tembri, va tovushlar shakllanishi.
    - **So'zlash**: So'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, gaplar qurish va fikrlarni ifodalash.
    - **Tushunish**: Boshqalarning nutqini tushunish va javob berish.
3. **Rivojlanish Etaplari:**
    - **Bola yoshi**: 0-3 yoshda nutq faoliyati intensiv rivojlanadi. Bolalar ovoz chiqarish, so'zlar va iboralarni o'rganish bilan shug'ullanadi.
    - **O'rta yosh**: 3-6 yoshda nutq malakalari yanada rivojlanadi, lekin bu davrda turli

nutq muammolari paydo bo'lishi mumkin.

**Harakat va Nutq O'rtasidagi Aloqa**

1. **O'zaro Ta'sir**:
   - Harakat va nutq malakalari o'rtasidagi bog'liqlik miyaning rivojlanishi, kognitiv funksiyalar va sensor motorik ko'nikmalarga bog'liq. Harakatlar orqali nutqni o'rganish, nutq jarayonida harakatlarning bajarilishi bilan bog'liq.
2. **Rivojlantirish Metodlari**:
   - O'yinlar va faoliyatlar orqali harakat va nutq malakalarini birlashtirish, masalan, musiqali o'yinlar, raqslar yoki sport faoliyatlari.
   - Nutq va harakatlarni birgalikda o'rganish, bolaning o'ziga ishonchini oshiradi va kommunikativ qobiliyatlarini yaxshilaydi.

**Amaliy Takliflar**

1. **O'yinlar**: Talabalar uchun harakat va nutqni rivojlantiruvchi o'yinlar tayyorlash (masalan, "So'z va Harakat", "Nutq Raqsi").
2. **Mashqlar**: Harakatlar yordamida nutq malakalarini rivojlantiruvchi mashqlar, masalan, harakatlarni ifodalovchi so'zlar bilan bog'lash.
3. **Tahlil va Muhokama**: Harakat va nutq o'rtasidagi bog'lanishlarni muhokama qilish, talabalarga o'z fikrlarini bildirish imkonini berish.

Ushbu ma'lumotlar harakat malakalari va nutq malakalarining rivojlanishini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi va talabalar uchun amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda foydali bo'ladi.

**5-mashg'ulot: 7-mavzu: Hislar, kognitiv rivojlanish (2 soat)**

"Kognitiv- (lotincha cognition idrok, tasavvur qilish, ishning tahlili ) – xarakter, tarbiya, kuzatish Kognitiv rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar: atrof-muhit, genlar, ijtimoiy nikoh holati

**Amaliy mashg'ulot: Hislar va kognitiv rivojlanish**

**Maqsad:**

Logopediya talabalariga hislar va kognitiv rivojlanishning ahamiyatini tushuntirish, shuningdek, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish.

**Vaqt:** 60 daqiqa

**Mashg'ulot Rejasi**

**1. Kirish (15 daqiqa)**

- **Ma'ruzacha**: Hislar va kognitiv rivojlanishning o'zaro aloqasi haqida qisqa ma'ruza.
- **Savol-javob**: Talabalardan hislar va ularning kognitiv rivojlanishga ta'siri haqida fikrlar so'rang.

**2. Amaliy Faoliyat 1: Hislarni eushunish (25 daqiqa)**

- **Vazifa**: Har bir talaba o'z hislarini ifodalovchi tasvirlar yoki fotosuratlarni olib keladi.
- **Topshiriq**: Talabalar o'z hislarini tasvirlar yordamida taqdim etadi. Bunda:
    - Hislarni tushuntirish: Qanday hislar paydo bo'lgan, nima sababdan.
    - Hislarni ifodalash: Har bir hisni qanday qilib nutq orqali ifodalash.

**3. Amaliy Faoliyat 2: Kognitiv Rivojlanish O'yinlari (25 daqiqa)**

- **Vazifa**: Talabalarni kichik guruhlarga bo'lish.

- **Topshiriq**: Kognitiv rivojlanishni rivojlantirish uchun turli o'yinlar o'tkazish. Misollar:
    - **"Hislar Karta o'yini"**: Karta yordamida hislarni belgilash va tushuntirish. Har bir karta hisni ifodalaydi va guruhda muhokama qilinadi.
    - **"Hislarni tashqi ko'rinishga o'tkazish"**: Talabalar hislar orqali suratlar chizish, so'ngra bu suratlar asosida o'z his-tuyg'ularini ifodalash.

**4. Tahlil va muhokama (15 daqiqa)**

- **Muhojira**: O'tkazilgan faoliyatlarni muhokama qilish. Talabalarning hislari va kognitiv rivojlanish o'rtasidagi bog'lanishlarni tahlil qilish.
- **Savollar**: Har bir faoliyat davomida hislarning qanday o'zgarishini va talabalarning fikrlarini eshitish.

**5. Xulosa (10 daqiqa)**

- **Xulosa**: Hislar va kognitiv rivojlanishning o'zaro aloqasi haqida qisqacha sharhlash.
- **Uyga vazifa**: Talabalarga hislar va ularning rivojlanishi haqida maqola yozish.

**Materiallar:**

- Hislarni ifodalovchi tasvirlar yoki fotosuratlar.
- Karta o'yinlari uchun tayyorlangan kartalar.
- Qog'oz va rangli ruchkalar.

**Qo'shimcha ma'lumot:**

Hislar kognitiv rivojlanishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular o'zaro muloqot qilish va o'zini ifodalashda asosiy o'rin tutadi. Ushbu mashg'ulot talabalarga hislar va kognitiv rivojlanishni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi va kelajakda o'z bemorlariga yordam berishda foydalanishlari mumkin bo'lgan amaliy ko'nikmalarnirivojlantiradi.

## ERTA TASHXIS VA ABILITATSIYA FANIDAN TALABALARBILIMINI ANIQLASH BO‘YICHA TEST SAVOLLARI

**№1-variant**

| |
|---|
| Barvaqt yordam tashkil etishning asosiy maqsadlariga quyidagilar kiradi: |
| ilk yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalarni va ularning oilasini maxsus yordam bilan qamrab olish, bolalarning rivojlanishidagi buzilishlarni tashxis qilish va korreksiyalash, ikkilamchi nuqsonlarning yuzaga kelishini oldini olish, bolalarni me’yorida rivojlanayotgan tengdoshlari orasiga integratsiyalash. |
| o‘zini mijozning o‘rniga qo‘yib ko‘rish orqali mijoz dardi, muammosi hamda vaziyatining qiyinligini anglashga yordam beradi; |
| mijoz va oila haqida to‘liq ma’lumotlarni to‘plashga yordam beradi; |
| qiyin hayotiy vaziyatdagi oila va mijoz bilan ishlovchi mutaxassis uchun muhim bo‘lgan ko‘nikma va tajriba. |

**№2-variant**

| |
|---|
| Divergentsiya, ya’ni rivojlanishda ikki jihat –....: |
| biologik va ijtimoiy (psixik) jihatlar o‘rtasidagi tafovut |
| ta’lim, va oilaga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish |
| mijoz hamda oila, manfaatlari; |
| oilaning davlat idoralariga murojaat qilganida ular tomonidan tegishli xizmatlarning ko‘rsatilishi |

**№3-variant**

| |
|---|
| Anomal rivojlanish nima tuzilishi bilan xarakterlanadi? |
| Murakkab nuqson tuzilishi bilan xarakterlanadi |
| Oddiy nuqson tuzilishi bilan xarakterlanadi |
| Aralash nuqson tuzilishi bilan xarakterlanadi |
| Engil nuqson tuzilishi bilan xarakterlanadi |

**№4-variant**

| |
|---|
| Korreksiya bu .. |
| nuqsonlarni tuzatish, yumshatish va bartaraf etish |
| ta’lim va tarbiya berish, ijtimoiy reabilitasiya |
| ijtimoiy reabilitasiya, yumshatish va bartaraf etish |
| bir analizatorning faoliyatini ikkinchisiga yuklatish |

**№5-variant**

| |
|---|
| Kompensatsiya bu: |
| bir analizatorning faoliyatini ikkinchisiga yuklatish |
| nuqsonlarni tuzatish, yumshatish va bartaraf etish |
| bolalarni ijtiomiy adaptasiyasini amalga oshirish |
| ijtimoiy reabilitasiya, yumshatish va bartaraf etish |

**№6-variant**

| |
|---|
| Ijtimoiy adaptasiya bu ... |
| maxsus yordamga muxtoj bolalarni mustaqil, hamma qatori yashab ketishni ta’minlash |
| bir analizatorning faoliyatini ikkinchisiga yuklatish, korreksion ishlarni olib boorish |
| nuqsonlarni tuzatish bartaraf etish, ijtimoiy reabilitasiya ishlarni olib borish |
| reabilitasiyalash bolalarni ijtiomiy adaptasiyasini amalga oshirish, nuqsonlarni tuzatish |

**№10-variant**

| |
|---|
| O‘zbekistondaimkoniyati cheklangan bolalar necha toifaga ajratib o‘rganiladi |
| 9 |
| 8 |
| 7 |
| 10 |

**№11-variant**

| |
|---|
| Asfiksiya – nima? |
| homilaning bo‘g‘ilishi |
| homilaning cho‘zilishi |
| homilaning qisilishi |
| homilaning tushishi |

**№12-variant**

| |
|---|
| Bola ilk yoshida (1-3 yoshlarda) boshidan kechirgan qaysi og‘ir kasalliklarni natijasida markaziy nerv sistemasining organik shikastlanishi kelib chiqishi mumkin? |
| Bularga meningitlar, entsefalitlar, poliomielitlar, qizamiq, gripp kiradi |
| suyagining lat yeyishi, miya jarohatlari, tug‘ruq payti kiradi |
| genetik (irsiy) omillarning ta’siri sifatida yuzaga keladi |
| Tumov, dizenteriya, anakuziya, gipoksiya kiradi |

**№13-variant**

| |
|---|
| Rivojlanishida kamchiligi bo‘lgan bolalar bu --- |
| jismoniy yoki ruhiy rivojlanishi buzilgan va maxsus ta’lim sharoitlariga ehtiyoj sezgan bolalardir |
| ijtimoiy ob’ektning (guruh, inson, obrazi |
| To‘g‘ridan-to‘g‘ri amaliyotda – alohida shaxslar |
| reabilitatsiyaning texnik vositalari va boshqalar) |

**№14-variant**

| |
|---|
| Dizontogenez – |
| bolalikda oliy psixik funktsiyalar shakllanishining buzilishi |
| muloqot sezgi, emotsiya va munosabatlarni yetkazadi. |
| o‘zlikda bo‘lishni bilish va imkoniga ega bo‘lish |
| sog‘ligining xolati, ovqatlanishi. |

**№15-variant**

| |
|---|
| 1-turdagi dizontogenez… |
| Rivojlanmay qolish (mexanizmi: psixik funktsiyalarning rivojlanishida to‘xtash kuzatiladi). |
| o‘zaro hamkorlikda ishlash, muammolarini birgalikda muhokama qilish o‘z vaqtida bajarish, |
| rivojlanishdagi geteroxronlik qonuniyatlarini va ikkilamchi buzilishlarni bilish bilan ta’minlash |
| ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar, atrof-muhit blan aloqa , o‘zaro harakat qilishdagi buzilishlar |

**№16-variant**

| |
|---|
| *Mezosistema* |
| inson kirgan ikki va undan ortiq mikrosistemaning o‘zaro aloqadorligi |
| inson kirgan ikki va undan ortiq mikrosistemaning o‘zaro aloqadorli |
| nerv sistemasining egiluvchanligi va kompensatsiyalanish imkoniyatlari |
| atrof-muhit blan aloqa , o‘zaro harakat qilishdagi buzilishlar |

**№17-variant**

| |
|---|
| *Ekzosistema* |
| inson bevosita kiritilmagan institutlar bo‘lib, ammo inson kirgan mikrosistema |
| ota-ona bilan bolani, uning opasi va ukasi, shuningdek, oilasining boshqaa’zolari bilan bo‘lgan munosabatlarini kiritadi. Maktabda esa o‘qituvchi va bola, uning sinfdoshlari bilan bo‘lgan munosabatlar |
| oila va maktab, ijtimoiy xizmatlar agentligi, oila va qo‘shnilar, maktab va tengdoshlari guruhi |

| |
|---|
| insonning rivojlanishi- faol rivojlanayotgan inson va uning qurshab olgan, dinamik o‘zgarayotgan atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro akkomodatsiya jarayoni (moslashuv va moslashishi), shuningdek, bu atrof-muhit bilan o‘zaro aloqadorlik va bu muhitga kiritilgan ekologik kontekst |

**№18-variant**

| |
|---|
| 2-turdagi dizontogenez. … |
| Rivojlanishning orqada qolishi (bir yoki bir nechta psixik funktsiyalarning sekin sur’atda shakllanishi bilan xarakterlanadi). |
| aqliy buzilishga ega odamlar yashaydigan muhitni me’yorlashtirish |
| Rivojlanmay qolish (mexanizmi: psixik funktsiyalarning rivojlanishida to‘xtash kuzatiladi). |
| odamning xohishiga ko‘ra unga do‘st rolini bajaruvchi sherik taqdim etilishi |

**№19-variant**

| |
|---|
| Tibbiy va psixologik-pedagogik nuqtai nazardan bolaning rivojlanishidagi muhim bosqichlari qachon hisoblanadi? |
| Ilk bolalik davri |
| Maktabgacha davr davri |
| Kichik maktab davri |
| Maktab davri |

**№20-variant**

| |
|---|
| 3-turdagi dizontogenez. |
| SHikastlangan rivojlanish (avval shakllangan funktsiyalarning zararli omillar ta’siri ostida yemirilishi bilan xarakterlanadi). |
| Rivojlanishning orqada qolishi (bir yoki bir nechta psixik funktsiyalarning sekin sur’atda shakllanishi bilan xarakterlanadi). |
| Rivojlanmay qolish (mexanizmi: psixik funktsiyalarning rivojlanishida to‘xtash kuzatiladi). |
| Buzilgan rivojlanishda umumiy rivojlanishning orqada qolishi, shikastlangan rivojlanish va alohida psixik funktsiyalarning tezkor rivojlanishi murakkab tarzda qo‘shilib ketgani kuzatiladi |

**№21-variant**

| |
|---|
| Bir xil ijtimoiy sharoitda umumiy qiziqishlar bilan yashaydigan individlar Jamiyati |
| Mikro muxit |
| Mezo muxit |
| Makro muxit |
| Eko muxit |

**№22-variant**

| |
|---|
| 4-turdagi dizontogenez .. |
| Buzilgan rivojlanish Buzilgan rivojlanishda umumiy rivojlanishning orqada qolishi, shikastlangan rivojlanish va alohida psixik funktsiyalarning tezkor rivojlanishi murakkab tarzda qo‘shilib ketgani kuzatiladi |
| Shikastlangan rivojlanish (avval shakllangan funktsiyalarning zararli omillar ta’siri ostida yemirilishi bilan xarakterlanadi). |
| Rivojlanishning orqada qolishi (bir yoki bir nechta psixik funktsiyalarning sekin sur’atda shakllanishi bilan xarakterlanadi). |
| Rivojlanmay qolish (mexanizmi: psixik funktsiyalarning rivojlanishida to‘xtash kuzatiladi). |

**№23-variant**

| |
|---|
| Alьfred Bine tomonidan ishlab chiqilgan o‘lchaydigan test bolaning qaysi jihatlariga qaratiladi? |
| Bolaning aqliy qobiliyatlarini o‘lchaydigan test metodi |
| Bolaning jismoniy rivojlanishini o‘lchaydigan shkala |
| Bolaning psixik rivojlanishi darajasi |
| Bolaning fiziologik rivojlanishining shkalasi |

**№24-variant**

| |
|---|
| Dezadaptatsiya — bu: |
| Insonning atrof muhitga moslashuvining buzilishi |
| Insonning kayfiyatini buzilishi |
| Insonning jamiyatga bilan aloqasining buzilishi |
| Insonning boshqalar bilan aloqasini buzilishi |

**№25-variant**

| |
|---|
| Ilk yoshdagi bolalarni, bir oylikdan to 3 yoshgacha bolalarni tekshirish va baxolashda yetakchi metodlar |
| Ota-onalar bilan suhbat va kuzatish |
| Eksperi-mental metodlar va kuzatish |
| Eksperimental metodlar |
| Kuzatish |

**№26-variant**

| |
|---|
| Bolalar rivojlanishidagi birlamchi nuqsonlar …. |
| kasallikning biologik xarakteriga bog‘liq |
| tevarak–atrof bilan aloqadorlikda |
| homilalikdagi patologiya natijasida |
| nasliy kasalliklar natijasida |

**№27-variant**

| |
|---|
| Konduktiv pedagogika nima? |
| bola va ona o‘rtasidagi faol birlikka asoslangan hayot tarzi |
| bolaning shaxs sifatlarini shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy xarakterdagi tadbirlar tizimi |
| mehnat faoliyatining yangi sharoitlariga ijtimoiy, kasbiy, ruhiy va jismoniy jihatdan moslashish jarayoni |
| pedagogik va ijtimoiy qarovsizlikni oldini olishga qaratilgan reabilitatsion tadbirlar majmui |

**№28-variant**

| |
|---|
| Postnatal davr bu |
| tug‘ruqdan keyingi davr |
| tug‘ruqdan oldingi davr |
| tug‘riq davri |
| xomiladorlik davri |

**№29-variant**

| |
|---|
| Bolani differentsial tashxis qilish orqali nimalar aniqlanadi? |
| bolaning rivojlanishidagi nuqsoni aniqlanadi |
| bolaning kasalligi davolanadi |
| bola maxsus muassasaga yo‘naltiriladi |
| bolaning oila sharoiti aniqlanadi |

**№30-variant**

| |
|---|
| “aktual rivojlanish zonasi” va “eng yaqin rivojlanish zonasi” ni kim birinchi bo‘lib asoslab bergan? |
| L.S.Vigotskiy |
| K.A.Ushinskiy |
| V.P. Yermakov |
| G.A.Yakunin |

**№31-variant**

| |
|---|
| Impairments bu - |
| psixik, fiziologik, yoki anatomik jihatdan me’yordan og‘ishish, yetishmovchilik; |
| lotincha so‘z bo‘lib, yo‘l, ahloq usuli ma’nolarini bildiradi |
| psixik, fiziologik, yoki anatomik jihatdan me’yordan og‘ishish, yetishmovchilik; |
| ijtimoiy ustanovkalar bilan o‘zaro aloqadorlikda qabul qilinadigan, jamiyat |

| |
|---|
| tomonidan beriladigan xizmatlar va imkoniyatlardan foydalana olmaslik, ijtimoiy dezadaptatsiya, samarasiz yoki sekinlashgan ijtimoiylashuv; |

**№32-variant**

| |
|---|
| 5-turdagi dizontogenez… |
| Rivojlanishning yetishmasligi (yoki defitsitar rivojlanish). |
| Nosoz rivojlanish (disgarmonicheskoe razvitie). |
| Buzilgan rivojlanish |
| Shikastlangan rivojlanish (avval shakllangan funktsiyalarning zararli omillar ta'siri ostida yemirilishi bilan xarakterlanadi). |

**№33-variant**

| |
|---|
| 6-turdagi dizontogenez. |
| Nosoz rivojlanish (disgarmonicheskoe razvitie). |
| Rivojlanishning yetishmasligi (yoki defitsitar rivojlanish). |
| SHikastlangan rivojlanish (avval shakllangan funktsiyalarning zararli omillar ta'siri ostida yemirilishi bilan xarakterlanadi). |
| uning qimmati shundaki u o'quvchilar faoliyatini ancha faollashtirishga imkon beradi |

**№34-variant**

| |
|---|
| Eng qo'pol nutq nuqsoni homilaning qaysi davrda rivojlanishi buzilganida yuzaga keladi? |
| homilaning 4 haftadan to 4 oygacha bo'lgan davrda rivojlanishi buzilganida yuzaga keladi. |
| homilaning 3 haftadan to 5 oygacha bo'lgan davrda rivojlanishi buzilganida yuzaga keladi. |
| homilaning 5 haftadan to 7 oygacha bo'lgan davrda rivojlanishi buzilganida yuzaga keladi. |
| Homilaning6 haftadan to 8 oygacha bo'lgan davrda rivojlanishi buzilganida yuzaga keladi. |

**№ 35-variant**

| |
|---|
| Bola rivojlanishi ... |
| Uzluksiz jarayonni aks ettiradi |
| Yordamchi jarayonni aks ettiradi |
| Katta jarayon hisoblanadi |
| Funksiyanol jarayon hisoblanadi |

**№ 36-variant**

| |
|---|
| Organizmning o'sishi va rivojlanishi bu- |
| Jismoniy rivojlanish |
| Jismoniy qoloqlik |
| Jismoniy harakat |
| Jismoniy muomala |

**№ 37-variant**

| |
|---|
| Tashvishlanish, tushunish bu |
| Xissiy rivojlanish |
| Jismoniy rivojlanish |
| Kognitiv rivojlanish |
| Muomalada bo'lish |

**№ 38-variant**

| |
|---|
| Go'dak va ilk yoshdagi bolani psixologik-pedagogik tekshirishning asosiy maqsadi: |
| bolaning psixik rivojlanish darajasini aniqlash, psixik funktsiyalarini shakllanish xususiyatlarini o'rganish, psixik rivojlanishidagi buzilishlar (nuqsonlar) xarakteri va darajasini aniqlashdir. |
| psixik funktsiyalarini shakllanish xususiyatlarini o'rganish nuqsonlarni tuzatish, yumshatish va bartaraf etish, bir analizatorning faoliyatini ikkinchisiga yuklatish |
| nuqsonlarni tuzatish, yumshatish psixik rivojlanishidagi buzilishlar (nuqsonlar) xarakteri va darajasini aniqlashdir. |
| ijtimoiy reabilitasiya, yumshatish va bartaraf etish, psixik funktsiyalarini shakllanish xususiyatlarini o'rganish bolalarni ijtiomiy adaptasiyasini amalga oshirish |

**№ 39 -variant**

| |
|---|
| Psixologik-pedagogik tekshirishning asosiy metodlari quyidagilardan iborat: |
| bolaning o'zi va ota-onasi bilan suhbat; anamnestik va katamnestik o'rganish; kuzatish; eksperiment. |
| sensor va harakat funktsiyalarini rivojlanish darajalarini aniqlash va tavsiflash |
| bolaning psixikasini o'rganishdagi yana bir tamoyil dinamik o'rganish tamoyilidir |
| bolaning psixik rivojlanish saviyasini aniqlash, potentsial imkoniyatlari asosida korrektsion ishlarni belgilash |

**№40-variant**

| |
|---|
| Psixologik tekshirish (o'rganish) tamoyillarini quyidagilar tashkil etadi: |

| |
|---|
| analitiko-sintetik o‘rganish tamoyili, sistemali va to‘liq o‘rganish tamoyili,dinamik o‘rganish tamoyili, ob’ektiv o‘rganish tamoyili, bolaning yosh xususiyatlarini e’tiborga olish tamoyili; |
| ko‘rishida va eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar yeshitishida va ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar jismoniy yoki ruxhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lganbolalar |
| bolaning o‘zi va ota-onasi bilan suhbat; anamnestik va katamnestik o‘rganish; kuzatish; eksperiment, dinamik o‘rganish tamoyili |
| Nutqida va aqlida nuqsoni bo‘lgan bolalarni ob’ektiv o‘rganish tamoyili, bolaning yosh xususiyatlarini e’tiborga olish tamoyili; |

**№41-variant**

| |
|---|
| Halqaro sog‘liqni saqlash tashkilotining 10–qayta ko‘rib chiqilgan kasalliklarning halqaro tasnifi bo‘yicha aqli zaiflikning qanday darajalari ajratiladi: |
| F70 – yengil aqli zaiflik, F71- o‘rta darajadagi aqli zaiflik, F72-og‘ir aqli zaiflik, F73- chuqur aqli zaiflik |
| F80 – yengil aqli zaiflik, F81- o‘rta darajadagi aqli zaiflik, F82-og‘ir aqli zaiflik, F83- chuqur aqli zaiflik |
| F90 – yengil aqli zaiflik, F91- o‘rta darajadagi aqli zaiflik, F92-og‘ir aqli zaiflik, F93- chuquraqli zaiflik |
| F60 – yengil aqli zaiflik, F61- o‘rta darajadagi aqli zaiflik, F62-og‘ir aqli zaiflik, F63- chuqur aqli zaiflik |

**№ 42-variant**

| |
|---|
| Oral guruhlar refleksi - Izlovchi refleks tarifini toping |
| Bola orqa bilan yotqiziladi. Barmoq bilan og‘iz oldini, lablarga tegmasdan silash, og‘iz burchaklarini tushushini va boshni qo‘zg‘atuvchi tomonga burilishini ta’minlaydi. |
| Bola orqasi bilan chalqanchasiga yotqiziladi. Bu refleks barmoq yoki bolg‘acha bilan yuqori labga urish orqali qo‘zg‘atiladi. |
| Bola orqasi bilan chalqanchasiga yotqiziladi. Agar bola og‘ziga so‘rg‘ich yoki ko‘rsatkich barmog‘ini 3 – 4 sm chuqurlikda solsa, chaqaloqda ritmik so‘rish harakatlari boshlanadi. |
| Bu guruh reflekslar yuz, uch boshli, til osti va til yutqun nervlarining holatini aks ettiradi. Bola orqasi bilan chalqanchasiga yotqiziladi. |

**№43-variant**

| |
|---|
| **Xobatokli (xartumli) refleksi -** |
| Bola orqasi bilan chalqanchasiga yotqiziladi. Bu refleks barmoq yoki bolg‘acha bilan yuqori labga urish orqali qo‘zg‘atiladi. Unga javoban og‘izning oldidagi |

| |
|---|
| muskullar tortishadi va lablar “xartumcha” bo‘lib bukiladi. |
| Bola orqasi bilan chalqanchasiga yotqiziladi. Agar bola og‘ziga so‘rg‘ich yoki ko‘rsatkich barmog‘ini 3 – 4 sm chuqurlikda solsa, chaqaloqda ritmik so‘rish harakatlari boshlanadi. |
| Bola orqasi bilan chalqanchasiga yotqiziladi. Kaft ichiga bosish og‘izni ochilishiga, ba’zan boshini egilishiga, yelkani egilishiga, ko‘zni yumilishiga olib keladi. |
| Bu refleks bola yotgan narsaga qattiq urish asosida (panelli stolga qattiq qo‘l bilan urish), shuningdek, chalqancha yotgan chaqaloqni tez ko‘tarish orqali qo‘zg‘atiladi. |

**№44-variant**

| **So‘ruvchi refleks -** |
|---|
| Bola orqasi bilan chalqanchasiga yotqiziladi. Agar bola og‘ziga so‘rg‘ich yoki ko‘rsatkich barmog‘ini 3 – 4 sm chuqurlikda solsa, chaqaloqda ritmik so‘rish harakatlari boshlanadi. |
| Bu refleks bola yotgan narsaga qattiq urish asosida (panelli stolga qattiq qo‘l bilan urish), shuningdek, chalqancha yotgan chaqaloqni tez ko‘tarish orqali qo‘zg‘atiladi. |
| Bola orqasi bilan chalqanchasiga yotqiziladi. Bu refleks barmoq yoki bolg‘acha bilan yuqori labga urish orqali qo‘zg‘atiladi. Unga javoban og‘izning oldidagi muskullar tortishadi va lablar “xartumcha” bo‘lib bukiladi. |
| Bu refleks miyaning giposkik jarohatlanishida bo‘lmaydi yoki uni qayta tiklash juda uzoq vaqt talab etadi. |

**№45-variant**

| **Kaft – og‘iz – boshli refleks (Babkina)…** |
|---|
| Bu guruh reflekslar yuz, uch boshli, til osti va til yutqun nervlarining holatini aks ettiradi. Bola orqasi bilan chalqanchasiga yotqiziladi. Kaft ichiga bosish og‘izni ochilishiga, ba’zan boshini egilishiga, yelkani egilishiga, ko‘zni yumilishiga olib keladi. Bola qo‘lini musht qilishga harakat qiladi. |
